

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida
UDK

Musayeva Umida Baxtiyorovna

**INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMADA
GRAMMATIK MUAMMOLAR**

5A 220101 Lingvistika (ingliz tili)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar



f.f.n. G'.X. Raximov

Samarqand – 2012

Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti 2- kurs magistranti
Musayeva Umidaning "Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimada grammatik
muammolar" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga

TAQRIZ

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish yanada jadal sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Insoniyat faoliyatining murakkab shakli bo'lmish tarjima - bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani (matnni) uning shakl va mazmun birligini saqlagan holda, o'zga til vositalari asosida, qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayondir.

Tarjima tillarning kamoloti uchun zaruriy vosita sifatida, ularning su'ratini jadallashtiradi, lug'at boyligini oshiradi va takomillashtiradi.

Mazkur magistrlik dissertatsiya ish hozirgi zamon jarayonining dolzarb muammolaridan biriga asliyat va tarjima tillari leksik, Grammatik va stilistik hodisalari o'rtasida uyg'un hamda tafovutli jihatlarni puxta o'zlashtirib olgan holda, asliyatning shakl va mazmun birligini ona tili vositalari yordamida qayta yaratishga qaratilgan bo'lib, ular ustida izlanishlar olib borilgan. Shu jihatdan olib qaraganimizda, mazkur magistrlik dissertatsiya ishining amaliy ahamiyati beqiyos bo'lib, ish ayni paytda dolzarb mavzuga bag'ishlanganligi bilan xarakterlidir.

Ushbu magistrlik dissertatsiya ishi Kirish, ikki asosiy bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning bu ko'rinishda tuzilishi mavjud talablarga javob beradi.

Mazkur magistrlik dissertatsiya ishining birinchi bobida asliyat va tarjima tillarining grammatik hususiyatlari, tarjimada muvofiqlik tushunchasi, kommunikativ maqsad va vaziyat darajasidagi ekvivalentlar to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Ikkinchi bobida esa, tarjimada grammatik transformatsiyalar, ingliz va o'zbek tillarining qiyosiy grammatikasi va ushbu tillarining o'xshash va farqli jihatlari misollar orqali yoritib berilgan.

Xulosa qismi bugungi kunda tarjimaning jamiyat rivojidadagi o'rnidan kelib chiqqan holda tarjimon asiliyatdagi har bir tushuncha va birlikni tarjima tilida batafsil yoritib bera olishi va bu jarayonni grammatik hususiyatlarga tayangan holda olib borilsa ko'zlangan maqsadga tez va oson yetishishi aytib o'tilgan.

Xullas, yuqoridagilarni hisobga olib ushbu magistrlik dissertatsiya ishini talab darajasida yozilgan deb hisoblab, uni himoyaga tavsiya etish mumkin. Tarjimashunoslikdagi dolzarb masalalardan biriga bag'ishlangan ushbu magistrlik dissertatsiya ilmiy ishiga qo'yilgan talablarga to'liq javob beradi.

Musayeva Umidaning "Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimada grammatik muammolar" mavzusidagi magistrlik dissertatsiya ishini tugallangan yakuniy ish sifatida YADAKga himoya qilishga tavsiya etaman.

Ingliz tili stilistikasi va leksikologiyasi
kafedrasi mudiri



f.f.n. F. Ro'ziqulov.



Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti Magistratura bo'limi
Lingvistika yo'nalishi Ingliz tili mutaxassisligi bo'yicha II bosqich bitiruvchisi
Musayeva Umidaning Magistr darajasini olish uchun "Ingliz tilidan o'zbek
tiliga tarjimada grammatik muammolar" mavzusida bajarilgan magistrlik
dissertatsiya ishiga ilmiy rahbar

MULOHAZASI

Bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lmish chet tilini o'qitishdan asosiy maqsad yoshlarimizdan kelajakda xorijiy mutaxassislar bilan tengma-teng fikr almashadigan malakali kadrlar yetkazib berishdir.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizning xalqaro siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotida faolligi oshish munosabati bilan chet tillarga bo'lgan munosabati tubdan o'zgardi. Bu o'z navbatida o'zbek va ingliz tillarini qiyosiy o'rganishi uchun umumiy va ilmiy talqin qilinishi kerak bo'lgan muamollar paydo bo'ldi. Shulardan biri ingliz va o'zbek tillarini solishtirib o'rganishdir.

Magistrant Musayeva Umida o'zining ishida tarjima jarayonida ikki til doirasidagi o'ziga xos grammatik hususiyatlar masalasiga xususan ingliz va o'zbek tillarida grammatikaning o'ziga xos jihatlari va tarjimada grammatik muammolarning kelib chiqish sabablarini metodologik nuqtai nazardan tadqiq va talqin etgan. Magistrlik dissertatsiya ishini bajarishda nazariy jihatdan ta'riflari aniq va ravon izohlashda keltirilgan misollar, dalillar ish muallifining ishga nechog'li ma'suliyat bilan yondashganligini ko'rsatib turibdi. Ishning oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalari aniq faktlar orqali o'z isbotini topgan. Chiqarilgan xulosa, yechim va tavsiyalar ilmiy jihatdan to'g'ri va yetarli dalillarga asoslangan. Magistrant Musayeva Umida magistrlik dissertatsiya ishini amaldagi Nizomlar talablariga to'liq javob berishiga, unung bilimi va malakasi qo'yilgan muammolarni mustaqil hal etishga yetarli ekanligiga ishonch bildiraman. Shuni e'tiborga olgan holda Musayeva Umidaning "Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimada grammatik muammolar" mavzusida bajargan magistrlik dissertatsiya ishini YADAKda himoya qilishga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar

F. Raximov
TASLIM QILINDI
Samarqand Chet Tillar Instituti
2019 YIL 10 OY 15 KUN
R. R. Raximov

f.f.n. G'. Raximov.



M U N D A R I J A

Kirish	3-9
I BOB. ASLIYAT VA TARJIMA TILLARINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	10-30
1.1. Tarjimada tillarning grammatik xususiyatlari muqobilligi.....	10-15
1.2. Tarjimada muvofiqlik tushunchasi.....	15-20
1.3. Kommunikativ maqsad darajasidagi ekvivalentlar.....	21-23
1.4. Kommunikativ vaziyat darajasidagi ekvivalentlar.....	24-30
II BOB. GRAMMATIK MUAMMOLAR VARIANTLARNI TANLASH	31-54
2.1. Ingliz va o'zbek tillarining qiyosiy grammatikasi.....	31-44
2.2. Tarjimada grammatik transformatsiyalar.....	45-54
Xulosa va takliflar.....	55-56
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	57-61

KIRISH

**Ilmu tafakkur- kishini ezgulikka
boshlaydigan beqiyos kuch.**

I.A.Karimov.

Mustaqil O'zbekistonimizning dunyo mamlakatlari orasida o'z o'rnini egallab borishida kelajak avlod bilim va tarbiyasining ahamiyati beqiyos. Xalqi ma'rifatli, jahon ilm-fani va ma'daniyatidan xabardor mamlakatning ravnaqiga ravnaq qo'shilaveradi. Shu bois keyingi yillarda O'zbekiston rahbariyati joylarda ilm-fanni, birinchi galda, universal oliy ta'limni rivojlantirish uchun barcha chora-tadbirlarni ko'ra boshladi. Bu maqsadlarga katta miqdorda mablag' ajratildi. Xorijiy mamlakatlar bilan ilmiy – texnikaviy ta'lim sohasida hamkorlik tobora chuqurlashib bordi. Shubhasiz, bu tadbirlar mazkur tizimda keskin burilish yasash, hozirda mamlakatni yuksak malakali yosh bilimdon mutaxassislar bilan ta'minlashga imkon berdi. Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ko'plab ishlarning salmog'i cheksizdir. Bularning barchasiga mustaqillikka erishishimiz va prezidentimiz tomonidan ulkan ishlarning olib borilayotganligi sabablidir. Ma'lumki mustaqillikning dastlabki yillaridayoq hurmatli Prezidentimiz I.A.Karimovning mamlakat taraqqiyotida ta'limning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib o'tadi va o'zimizning milliy qadriyatlarimizga asoslangan milliyligimizni o'zida aks ettiradigan taraqqiyot konsepsiyasini ishlab chiqib, uni hayotga singdirish yuzasidan turli dasturlar ishlab chiqdi. Hurmatli Prezidentimiz I.A.Karimovning mamlakat taraqqiyotida ta'limning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib o'tadi va 2010 yil "Barkamol avlod" yili deb e'lon qilinishidan biz kabi yoshlarga yuksak e'tibor qaratilganligiga yaqqol misol bo'la oladi

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.

Ta'lim tizimidagi islohotlar boshlangan dastlabki yillarda jahon tajribasi va hayotda o'zini ko'p bor oqlagan haqiqatdan kelib chiqib, agar bu maqsadlarimizni

muvoqafiyatli ravishda amalga oshira olsak, tez orada hayotimizda ijobiy manodagi “portlash effekti”ga, ya’ni, yangi talim modelining kuchli samarasiga erishamiz – degan edi prezident Islom Karimov o’zlarining “Yuksak Ma’naviyat yengilmas kuch” asarlarida. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o’quv yurtlarida tahsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm-ma’rifat sirlarini o’rganayotgan, hozirdanoq ikki-uch tilda bimalol gaplasha oladigan ming-minglab o’quvchilar hayotga kirib kelayotgan, o’z istedodi va salohiyatini namoyon etayotgan yosh kadrlar misolida orzu intilishlarimiz bugunning o’zida hosilini berayotganining guvohi bo’lmoqdamiz”[2,61]. Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “oliy talim to’g’risida”gi dasturlarni ana shu fikrni amaliy tasdig’i sifatida ko’rishimiz mumkin

Mamlakatimizning dunyo mamlakatlari orasida nufuzining oshib borishi natijasida ular bilan olib boriladigan iqtisodiy - siyosiy madaniy va ma’naviy aloqalar ham mustahkamlanib bormoqda. Bu aloqalarning bardavom bo’lishida ularning ma’naviy va adabiy merosini o’rganish va xalqimizga yetkazish ham muhim o’rin tutadi. Boshqa xalqlar va elatlar adabiy merosi, urf odatlari va turmush tarzini o’rganish uchun o’z navbatida tarjima sohasiga ehtiyoj paydo bo’ladi.

Tarjima xalqlar o’rtasidagi do’stlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, ular orasidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiladigan qudratli quroldir. Shundan kelib chiqqan holda tarjimon mutaxassislari tayorlash masalasi respublikamiz mustaqillikka erishganidan so’ng alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bizga ma’lumki tarjima badiiy ijodning bir turidir. Ya’ni bir tilda yozilgan matn yoki aytilgan nutqning boshqa tilda yartilishidir. Bu jarayonlarda ma’lum til meyorlari, qonun - qoidalar va unsurlarning bir tilda mavjudligi boshqa bir tilda shu unsurlarning yo’qligi ba’zan tarjimonlarga bir qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ammo har bir tilda nutq manosi ifodalovchi bir unsur boshqa tilda boshqasi bilan ekvivalent sifatida foydalaniladi. Masalan: artikl barcha tilda

bo'lmagani kabi xususan o'zbek tilida mavjud emasligi ham munozaraga sabab bo'lishi mumkin.

Mazkur magistrlik dissertatsiya ishimiz ingliz va o'zbek tillariaro amalga oshiriladigan tarjima jarayonida bu ikki tilning grammatik xususiyatlarining o'ziga xosliklari, muvofiqlik va tafovutli jihatlarini hisobga olgan holda yosh tarjimonlarimiz oldida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarga ma'lum bir oydinlik va hal etish yo'llari haqidagi fikrlarga bag'ishlanadi.

Mavzuning o'rganilganligi darajasi va dolzarbligi. Malumki bugungi kun tilshunosligini tarjima va tarjimaviy tadqiqotlarsiz tassavur qilib bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish jarayonida nafaqat tilshunoslikning rivojlanishi balkim millatlar o'rtasidagi hamjihatlik va ularning turmush tarzi haqida batafsil ma'lumotlarga ham ega bo'lib borishligining guvohi bo'lamiz. Yanikim tarjimonning sermashaqqat mehnati tufayli jahon xalqlari adabiyotlarining o'zaro aloqasi va bir-birlariga ta'sir jarayoni tezlashadi. Tarjimon mehnati tufayli kitobxonlar jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo'ladilar. Tarjimon mehnati tufayli tilimizning lug'at boyligi oshiriladi, ona tilimizning badiiy ifoda vositalari kengaytiriladi.

Aynan shu tufayli nashr qilinayotgan lingvistik tadqiqotlarda tarjima muammolariga, tarjimonlar tayyorlash masalasiga jiddiy e'tibor berilmoqda. Yetuk tarjimonlar tayyorlash muammosi eng avvalo tarjima nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasiga, bu boradagi tayyorlanayotgan yosh mutaxassislarning nazariy va amaliy bilimlar bilan qanday darajada qurollanayotganligiga bog'liq.

Tarjima mutaxassisligiga tayyorlashning lisoniy muammolari asosan rus tarjimashunos olimlari tomonidan keng va atroflicha o'rganilgan deyish mumkin. Masalan o'tgan asrning 60-yillarida rus olimi L.S.Barxudarov tarjima nazariyasining umumlisoniy ahamiyati haqida tadqiqot o'tkazib bu muammoning tarjima nazariyasining rivojlanishidagi o'rnini belgilab bergandi.(8-s.14.) Shu muallifning «Til va tarjima» deb ataluvchi ikkinchi yirik bir asarida esa tarjimaning leksik, grammatik, frazeologik muammolari alohida tadqiqot obyekti

bo'lgan (9- 339 s.). Rus olimi V.N.Komissarovning bu boradagi qator tadqiqotlari (32,33,34) lisoniy tarjimaning alohida yo'nalish sifatida shakllanishiga katta turtki bo'ldi. Malumki rus va o'zbek tillarida shakllangan lingvistik tarjima nazariyasining vazifasi tarjima jarayoni tizimi tarkibini aniqlash va shu asosda tarjima amaliyoti uchun zarur bo'lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlashdan iboratdir. Rus olimi V.N.Komissarov ta'biri bilan aytganda «Lingvistik tarjima nazariyasi bir til matnining ikkinchi til matniga aylanishi qonuniyatlarini aniqlaydi, o'rganadi, modellashtiradi.(33- s.3). Shu nuqtai nazardan, ingliz tilidan o'zbek tiliga, o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishning grammatik ekvivalentlik darajasi, transformasion, pragmatik aspektlarini aniq ko'rsatilgan va ularni talabalar amaliyot darslarida foydalana oladigan qo'llanma darajasida nashr qilinmaganligi tarjima nazariyasini va amaliyotini o'zbek tilida o'rganayotgan talabalar uchun ma'lum darajada qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Bu borada o'zbek tilida nashr qilingan taniqli tarjimashunos olim Q.Musayevning «Tarjima nazariyasi asoslari» nomli kitobi mavjudligini ta'kidlash lozim(8).Oliy ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tasdiqlangan bu kitobda ham tarjimaning ekvivalentlik, transformasion, pragmatk asoslari haqidagi fikrlar bir tizimga solinib, fundamental o'rganilmaganligi bitiruv malakaviy ishimizda aynan shu vazifani amalga oshirishga turtki bo'ldi. O'zbek tarjima maktabining darg'asi hisoblanmish G'aybulla Salomovning tarjima nazariyasiga bag'ishlangan qator kitoblari («Til va tarjima» T.1966, «Adabiy an'ana va badiiy tarjima». T., «Fan» 1980; «Tarjima tashvishlari» .T., 1983; «Tarjimon mahorati»,T., «Fan».1979) va qator maqolalarida biz qiziqayotgan sohaning ruscha va o'zbekcha tarjimasiga oid qimmatli fikrlar bildirilgan. Olimning tadqiqotlaridan olingan nazariy xulosalar bu masalani inglizchadan – ruschaga va rus tilidan o'zbek tiliga o'girilgan badiiy adabiyotlar misolida o'rganish imkoniyatini beradi.

Nashr qilinayotgan monografiyalar, nomzodlik va doktorlik dissertasiyalarida va ko'plab maqolalarda tarjimaning leksik, grammatik, stilistik muammolariga, tarjimada ekvivalentlik, original asardagi pragmatik belgilarning tarjimada ifodalanishi, tarjimada grammatik birliklar talqini, tarjimada sinonimik

birliklarning berilishi, tarjimada xos soʻzlarning berilishi, tarjimada tarixiylik va milliylik, tarjimada personajlar nutqining berilishi, tarjimada obrazni qayta yaratish, tarjimada nutq madaniyati, tarjimada til normasi, tarjimada mantiq muammolari kabi koʻplab masalalar haqida bahs yuritilsada, ular haligacha boʻlajak tarjimonlarning kundalik amaliy faoliyatida muayyan oʻquv qoʻllanma sifatida nashr qilinmaganligi bu masalaning dolzarbligidan dalolat beradi.

Tadqiqotning obyekti va manbaalari. Magistrlik dissertatsiya ishimizning obyekti ingliz tilidan oʻzbek tiliga bilvosita tarjima jarayonidagi ekvivalentlikning asosiy turlari, tarjima jarayonidagi grammatik transformasiyalar boʻlib, asosiy manba sifatida rus va oʻzbek tarjimashunos olimlarining bu boradagi tadqiqotlaridir.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Magistrlik dissertatsiya ishimizning maqsadi tarjimonlik fakultetlarida «yozma tarjima», «ona tiliga tarjima», «chet tiliga tarjima» kurslarida amaliy mashgʻulotlarda zarur boʻlgan asosiy tarjimaviy muammolar: tarjimada ekvivalentlik, grammatik transformasiyalarning asosiy turlariga oid nazariy bilimlarni oʻrganish va ularni umumlashtirgan holda oʻzbek tilida bayon qilishdir. Bularning hammasi tarjima mutaxassisligiga oʻrgatishning lisoniy va didaktik asoslarini atroflicha oʻrganishga, ularni inglizchadan oʻzbekchaga va oʻzbekchadan inglizcha tarjima amaliyotini oʻrganayotgan talabalar uchun yaxlit qoʻllanma holiga keltirishdir.

Tadqiqotning metodologik asoslari va tadqiq usullari. Magistrlik dissertatsiya ishimizni bajarishda tadqiqotning metodologik asosini milliy istiqlol mafkurasi gʻoyalari, Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari, Oʻzbekiston Respublikasi hukumatining koʻrsatma va qarorlari tashkil etadi, shuningdek umumiylikdan –xususiylikka oid dialektik falsafa qonuniyatiga va lisoniy tilshunoslikda shakllangan tavsiflash, qiyoslash, tahlil kabi usullardan foydalandik.

Bu boradagi fikrlarni misollar orqali asliyat, ingliz va o'zbekcha matnlar orqali tahlil qilishga urindik.

Ishning ilmiy yangiligi. Magistrlik dissertatsiya ishimizning yangilgi tarjima mutaxassisligiga o'rgatishda talabalarning amaliy mashg'ulotlarida juda ko'p bora duch kelinadigan tarjimada yuzaga keladigan grammatik muammolarni yaxlit holda to'plash va o'zbek tilida bayon qilinishidir.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertatsiya ishimizning nazariy va amaliy ahamiyati bizningcha shundaki, o'zbek tilida bayon qilinayotgan tarjima jarayonining lisoniy aspektlari oliy o'quv yurtlari tizimida tarjimonlik mutaxassisligiga tayyorlashning yangicha tizimiga o'tishiga va shu orqali tarjimonlarning yangi avlodini yaratishga nazariy va amaliy jihatdan yordam beradi. Bunday yaxlit metodik ko'rsatmalarning o'zbek tilida haligacha nashr qilinmaganligi ham ishimizning amaliy ahamiyatini belgilaydi. Tadqiqotning nazariy asoslari bo'yicha mamlakatimiz va chet ellardagi olimlar bilan bir qatorda Q. Musayev, A. Fedorov, G'.Salomov va ularning izdosh shogirdlari, shuningdek boshqa olimlarning ishlari asos qilib olindi.

Natijalarni joriy qilishi: Dissertatsiya ishi natijalarida ingliz va o'zbek tarjimonlik yo'nalishi bo'yicha bakalavr talabalarga "ingiliz tilidan o'zbek tiliga tarjimada grammatik muammolar" haqida ma'ruza va amaliy mashg'lotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Natijalarning e'lon qilinganligi: Dissertatsiyaning asosiy mazmuni bo'yicha ilmiy to'plamlarda 2 ta maqola chop etildi. Ushbu ish bo'yicha birinchi maqola 2012-yil "tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalari" nomli maqolalar to'plamining yettinchi chiqishida "Some grammatik problems in translation" nomi bilan , ikkinchi maqola 2012-yil "Alma Mater" magistrlar va yosh tadqiqotchilar ilmiy maqolalar to'plamida "Tarjimada grammatikaning ahamiyati" nomi bilan

nashr etildi.

Ishning hajmi va tuzilishi. Magistrlik dissertatsiya ishimiz 60 sahifadan iborat bo'lib kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning kirish qismida prezidentimizning ta'lim sohasidagi fikrlari va uni rivojlantirishdagi say-harakatlari, hamda ishning dolzarbligi, o'rganilgan darajasi, yangiligi, obekti va manbalari, nazariy va amaliy ahamiyati, metodologik asoslari, usullari to'g'risida, shuningdek 1-bobda tarjima mutaxassisligiga o'rgatishda asliyat va tarjima tillari o'rtasidagi grammatik muvofiqlik va tafovutli jihatlarni hisobga olib, 2-bobda tarjima mutaxassisligiga o'rgatishda grammatik transformasiya usullarini bayon qildik. Ishimizning xulosalar va takliflar qismida malakaviy ishimizning natijalarini va bu natijalar orqali chiqarilgan xulosalar, mavzuga doir takliflarni bayon qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida ishimizda foydalanilgan 53 mualliflarning asarlari alfavit tartibida berilgan.

Magistrlik dissertatsiya ishimizga ilova tarzida yetuk o'zbek yozuvchisi Shukur Xolmirzayev ijodiga mansub kichik hikoyaning ingliz tiliga bevosita tarjimasi keltirilgan.

I BOB. ASLIYAT VA TARJIMA TILLARINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

1.1. Tarjima tillarning grammatik xususiyatlari.

Tarjima hususida gap borar ekan, bir tildan boshqa tilga alohida soʻzlarni, soʻz birikmalarini, butun bir asarni tarjima qilish nazarda tutiladi. Tarjima bir-biriga nisbatan yaqin tillardan, yoki tamoman boshqa-boshqa oilaga mansub boʻlgan tillardan amalga oshirilishi mumkin.

Tarjima teng maʼnolilik yaʼni muqobillikni taqozo qiladi, boshqacha qilib aytganda, amalga oshirilgan tarjima asliyatga mazmun jihatdan muvofiq boʻlishi lozim. Bu hodisaning toʻliq amalga oshirilishi hozirgi kunga qadar tarjima nazariyasi va amaliyotining asosiy muammosi boʻlib kelmoqda.

Bu masalaga oz boʻlsada oydinlik kiritish uchun tarjima nazariyasi tarixida yuzaga kelgan har xil nazariya va fikrlarga toʻxtalib oʻtish lozim. Dastavval, tarjima fanining kelib chiqishi tarixiga eʼtibor qaratib oʻtish maqsadga muvofiq.

Tarjimashunoslik fanining qaysi fan tarkibida rivojlanganligi haqida turli fikrlar mavjud boʻlib, bir guruh olimlar (A.A. Reformatskiy, A.V. Fyodorov va boshqalar) tarjima adabiyotshunoslik fani tadqiqod obekti deb qarashni taklif etadilar. Bunda tarjima asl nusxani badiiy xususiyatlarini hisobga olib, adabiyotshunoslar tomonidan amalga oshirilishi kerak degan gʻoya ustun boʻlgan. Bunga sabab etib, faqat adabiyotgina adabiy asarning tub mazmunini tushungan holda, boshqa tilda oʻsha asarni qayta yarata oladi, degan mushohada bu fikr tarafdorlarning dastagiga aylangan.

Ikkinchi guruh olimlari (L.S. Barxudarov, R. Yakobson, E. Nida va boshqalar) tarjima tilshunoslar tomonidan amalga oshirilishi kerakligini taʼkidlashib, asliyat tilining lingvistik xususiyatlari chuqur oʻrganilgan holda, tarjima tilida qayta yaratilishini nazarda tutishgan. Albatta, bu ikki yoʻnalish tarafdorlarining fikrlarida jon borki, asliyatda qoʻllanilgan adabiy uslublar oʻsha asarning sifatini ochib berib, bu uslublar lingvistik qoida va unsurlar asosida yuzaga keltiriladi. Vaholangki,

agar asarda adabiy uslublar yo'q bo'lishining o'zi bu asarni "asar" darajasiga chiqish imkonini bermaydi. Bu fikrlar aynan badiiy yozma tarjima borasida bildirilgan bo'lib, og'zaki tarjimaga aloqadorlik jihati yo'q. Chunki og'zaki tarjimada asosiy e'tibor so'zlovchining nutqidagi axborotni tinglovchiga yetkazib berish bo'lib, boshqa jihatlar ikkinchi darajali hisoblanadi. Masalaning boshqa tomoni ham borki, badiiy yozma tarjimaning tilshunoslar tomonidan amalga oshirilishi ham maqsadga muvofiq bo'lavermaydi: asarning boshqa tilda xuddi shunday lingvistik qoidalaridan foydalanib qayta yaratilishi adekvatlik tushunchasidan ancha yiroqdir.

Tarjima borasidagi bunday turli fikrlilik bu fanning asosini anglab yetish uchun bildirilgan fikrlar zid qarashlarni keltirib chiqardi, ya'ni tarjimashunoslik adabiyotshunoslik asosidami yoki tilshunoslik asosida shakllanadimi; tarjima asl nusxani so'zma-so'z tarjima qilishmi yo uning erkin ijodiy tarjima qilinishimi; manbaa til xususiyatlarini saqlash kerakmi yoki tarjima til xususiyatlarini ishga solib, uning andozasiga tushirish kerakmi; umuman tarjima amalga oshirib bo'ladigan jarayonmi yo'qmi mazmunidagi savollar olimlar oldida munozalarga sabab bo'ldi.

G. Savori fikriga ko'ra, tarjima quyidagi shartlarni bajarishi lozim* (G'. Salomov. "Tarjima nazariyasiga kirish." 40-41 betlar):

- ✓ tarjima asl nusxaning so'zlarini bersin;
- ✓ tarjima asl nusxaning g'oyalarni ifodalasin;
- ✓ tarjima original asardek o'qilsin;
- ✓ tarjima tarjimadek o'qilsin;
- ✓ tarjima asl nusxaning uslubini aks ettirsin;
- ✓ tarjima tarjimonning uslubini aks ettirsin;
- ✓ tarjimada nimanidir qo'shish yoki tushirib qoldirish mumkin;
- ✓ tarjimada hech narsani qo'shib ham, tushirib qoldirish mumkin emas.

Bunday hollarda qanday bo'lmasin mazmun ko'lami diqqat markazida turadi, chunki tarjima tabiatan matn mazmun ko'lamini saqlab qolish darajasi bilan baholanadi.

Mazmun ko'lamida deganda til birligi bo'lmish bir belgining boshqa belgilar bilan kirisha oladigan hamma munosabatlarni nazarda tutgan holda, o'ta keng ma'noda tushunish kerak. Ya'ni ma'no deganda biz ayni holatda predmetning lug'aviy yoki denotativ ma'nosini tushunamiz. Ma'no ko'lamining tarjimada o'zgarmagan holda bir tildan ikkinchi tilga o'tishini to'la bo'ladi deb tushunmaslik kerak, chunki bir tildan ikkinchi tilga matn transformatsiya qilinganda va uning aksi bo'lganda biror bir ma'no tushib qolishi yoki yo'qolish tabiiy.

Boshqacha qilib aytganda, asliyatdagi ma'noni tarjima matnida to'liq ifodalana olmaydi. Bundan kelib chiqadiki, tarjima matni hech qachon manbaa matniga to'liq va mutlaq ekvivalent bo'la olmaydi.¹ Ayni vaqtda tarjimonning vazifasi mana shu ekvivalentlik - muqobillikni iloji boricha to'laroq bo'lishiga erishishdir. Asliyat matni shunday tarjima qilingan bo'lsinki, unda ma'no tushib qolishi juda kamaygan bo'lsin, lekin shunday holatda ham yuz foiz ma'no mosligini tarjimondan talab qilish noto'g'ri bo'ladi. Bunda qaysi ma'nolar tarjima jarayonida katta o'rin tutadi va ularni tarjima tilida saqlab qolish kerak va qaysi birlarining saqlab qolishning hojati yo'qligini aniqlash katta ahamiyatga ega.

Manbaa tili matnidagi ma'nolarni tarjima tiliga u yoki bu holda berilishi tarjimonga bog'liq va yana bir masala - tarjimaboplik masalasiga to'xtalib o'tishni talab qiladi. Tarjima adabiyotida bir tildagi ma'noning ikkinchi bir tilga to'laqonli - adekvat darajada berilishi ko'pchilik nazariyotchi olimlar tomonidan gumon ostiga olingan. Bunday ziddiyat va gumonlarning kelib chiqishiga sabab shundaki, ba'zi nazariyotchi olimlar dunyoda "rivojlangan", "sivilizatsiyalashgan" tillar, hamda "rivojlanmagan" tillar bor, degan g'aliz fikrni o'rta tashlashadi. Bu fikrga qarshilik bildirishga to'la asosimiz bor. Chunki, barcha tillar o'ziga xos "boy" va "rivojlangan"dir. Grammatik qurilishga ega bo'lgan har qanday til, har qanday predmet, ma'no va har qanday tushunchani ifodalashga qodirdir* (L.S. Barxudarov "Язык и перевод" 1979 стр. 20). Aks holda u til emas va o'z so'zlovchilariga (yozuvchilariga, tinglovchilariga) xizmat qilishiga qodir emas.

Tarjimaning tadqiqod obekti ikki til o'rtasidagi munosabat asosiga qurilar ekan, bunda bu ikki tilning ichki xususiyatlari, xususan grammatik holatini tubdan

o'rganib chiqishni taqozo qiladi. Bu borada tillar o'rtasida tipologik tadqiqod olib borish zarurati yuzaga keladi.

Tarjima nazariyasi fanining rivojlanish sohasida ulkan hissa qo'shadigan fanlardan biri bu qiyosiy tipologiyadir. Bu ikki fan o'rtasida dialektik aloqa mavjud bo'lib, ularning tadqiqod obekti ikki yoki undan ortiq tillar doirasida kechishi fikrimiz isbotidir.

Tarjima jarayoni o'z xususiyatiga ko'ra qiyosiy tipologiya jarayoniga o'xshaydi, ya'ni bunda tarjimon boshqa biror tilda ifoda etishning yangi shakllarini qidiradi, chunki "tarjima - o'sha ma'noning aynan o'zini saqlagan holda boshqa tilda qayta tuzish"*(Aspects of Translatin. Studies in Communication 2, London, 1969, p VII.) demakdir.

Bu fikrni ko'p tilshunoslar tasdiqlashadi. Masalan, "Tarjima jarayoni biror matnning ma'lum mazmunini bir tildan boshqa bir tilga transferensiyalash (ag'darish)dir" - deb yozadi A. Foster, J. Ellis ham bu fikrga qo'shilib, "Tarjima bir tilda bayon etilgan fikrning ikkinchi tildagi ifodasidir" deydi. L. S. Barxudarovning ta'rificha tarjima: "Bir tildagi nutq faoliyati (matn)ni o'zgarmas mazmun planini saqlagan holda ikkinchi bir tildagi nutq faoliyati (matn)ga aylantirish jarayonidir"*(L. S. Barxudarov. Уровни языковой иерархии и перевод. Тетрааи переводчика, М., 1969, стр. 3.)

Tillarning tipologik jihatdan yaqinligi tarjimada ma'lum darajada yengillik yaratadi:

- tipologiya tihatidan yaqinligi ortiq bo'lgan tillarda tenglik darajasi ustun;
- tipologik yaqinlik genetik yaqinlik bilan bir vaqtda yuz bersa, tarjimada qiyinchilik sodir bo'lmaydi. Masalan, bir turkiy tildan ikkinchi turkiy tilga tarjima qilishda ortiqcha qiyinchilik sezilmaydi, chunki bu tillar sistemasidagi fonetik, morfologik va leksik o'xshashliklar bir biriga juda yaqindir.

Tarjimon va tipologning birinchi navbatdagi vazifasi umumiy leksik hamda grammatik ma'noni aniqlashdan iboratdir.

Bir tildagi ma'lum ma'no ifoda shaklidan qat'iy nazar boshqa tilda, stilsitika normalarini saqlagan holda, to'la ifodalanishi mumkin. "Ifoda formasini e'tiborga

olib, faqat matn mazmuninigina bir tildan ikkinchi tilga ko'chirishni tarjima deyish mumkin", - deb yozadi prof. I. R. Galperin.* (И. Р. Галперин. Перевод и стилистика. Вопросы теории и методики учебного перевода. М., 1950, стр. 127-140). Demak, yuqorida keltirikgan fikrlardan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, tarjimada umumiy ma'noga asoslanish maqsadga muvofiqdir.

Bu ikki fanning bir-birga aloqadorligini yana tarjimaning yangi turlaridan biri bo'lmish avtomatik tarjimaning asosini yaratishda kuzatishimiz mumkin. Avtomatik tarjimada tipologik analiz natijalaridan foydalanish mumkin, chunki tilni sistemali analiz qilmay turib, avtomatik tarjima qilib bo'lmaydi. Avtomatik tarjima uchun til sistemasini formallashtirib, ma'lum dastur tuzish tilshunoslik fanining zimmasiga yuklanadi. Hozir mamlakatimizda yaratilayotgan mashina tarjimasining algoritmlari grammatikaga asoslanadi. Turli tillar orasidagi grammatik muvofiqliklarini aniqlashni ham tarjima deb tushuniladi.* (А. К. Жолковский, Машинный перевод. М., 1961, стр. 17.)

Ikki yoki undan ortiq til sistemasining o'ziga xos xususiyatlarini hamda chog'ishtirilayotgan tillar sistemalari orasidagi muvofiqlik qonuniyatlarini aniqlash tarjima nazariyasi va qiyosiy tipologiyaning umumiy vazifasidir.

"Tarjima nazariyasi o'z mohiyati bilan ikki til sistemasini ilmiy asosda chog'ishtirishdan bo'lak narsa emas", deb yozadi prof. L. S. Barxudarov.* (Л. С. Бархударов, Общелингвистическое значение перевода, "Теория и критика перевода". ЛГУ, 1962, стр. 8). Demak, tarjima nazariyasi qiyosiy tipologiyaning izlanish usullari va predmetlari bir-biriga juda yaqin. Bu umumiylik ba'zi tilshunoslar J. Ketford, Hallidey, J. Ellis, Yu. Nayda va boshqalarni tarjima nazariyasi va qiyosiy tipologiya bir butun nazariya deb hisoblashga yoki tarjima nazariyasi qiyosiy tilshunoslikning tarkibiy qismi degan fikrga olib keladi. Masalan, J. Ketford "Tarjima nazariyasi tillar o'tasidagi ma'lum munosabatni o'rganganligi sababli, u qiyosiy tilshunoslikning bir shaxobchasi", desa, M. A. Hallidey "avtomatik yoki mashina tarjimasining haqiqiy vazifalaridan biri tillar sistemasini tasvirlash va chog'ishtirishdan iborat, shu sababli ham tarjima nazariyasi amaliy lingvistika diskriptiv va qiyosiy lingvistika bilan chambarchas

bog'liqdir", - deydi. Til sistemalari o'rtasidagi muvofiqliklarni topish to'la ma'noda tarjima, degan gap emas, albatta. Bu faqat muayyan mazmunni bir tildan ikkinchi tilga ag'darishda tarjimon foydalanadigan formal jihatidir. Tarjima nazariyasi va qiyosiy tipologiya bajaradigan ish jarayoni o'xshashdir, ya'ni abstraktlash (mavhumlash)dan korrespondiyalash (muvofiqlashuv)ga yoki analizdan sintezga o'tadi. Tarjima nazariyasi va qiyosiy tipologiya qardosh va qardosh bo'lmagan tillar sistemalarini univ. ravishda tadqiq qiladi.

Ikki yoki undan ortiq til sistemalarini mazmun yoki formaga asoslanib chog'ishtirish mumkin. Bu masalaga doir turli fikrlar mavjud. Ba'zilar til sistemalarini mazmuniga tayanib, boshqalar shakliga, ya'ni yo mazmundan shaklga, yoki shakldan mazmunga qarab boshlashni taklif etadilar.

Umuman olganda har bir tilda o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib bu jarayonda albatta tarjimon tillarning ichki xususiyatlari va tuzilishlariga alohida e'tibor bermasdan iloji yo'q aks holda u katta xatoga yo'l qo'ygan bo'ladi.

1.2 Tarjimada muvofiqlik tushunchasi.

Hozirgi davrda tarjimaning teng ma'nolilik yoki asliyatga muvofiqlik tushunchasi haqida har xil tushuncha, qarashlar va konsepsiyalar mavjud. Jumladan, shaklan muvofiqlik tushunchasini olg'a surgan tarjimashunoslar asliyatdagi hamma belgi va unsurlarni so'zma-so'z, harfma-harf o'girish kerak degan fikrni o'zlariga dasturulamal qilib olishgandilar. Bunda iloji boricha asliyat matnini shaklan o'girish talab etilardi. Asliyatdagi faqat to'g'ridan-to'g'ri qayta yaratib bo'lmaydigan joylarigina o'zgartirilar, almashtirilar yoki bo'lmasa matndan tushirib qoldirilar edi. Bu fikr tarafdorlari yana diniy "muqaddas" kitoblarni tarjima qilishda, ularni "Ollohning so'zlari" deya, aniq va so'zma-so'z tarjima qilar edilar. Natijada, bunday so'zma-so'z tarjima kitobxonni asarni o'qishdan bezdirib, qiziqishini so'ndirishiga olib kelardi. Bu fikr tarafdorlari, hattoki, o'tgan asrning 60-yillarida ham uchrab turgan. Yuqoridagi tarjima usuliga qarshi mazmunan muvofiqlik tushunchasi tarafdorlari so'zma-so'z tarjima usuliga qarshilik bildirishib, quyidagi ikki talabga rioya qilgan holda tarjimani amalga oshirishni nazarda tutishgan:

- asliyat matnining barcha muhim unsurlarini tarjima qilish;
- tarjima qilinayotgan til normalariga amal qilgan holda tarjima qilish.

Shu ikki holatga amal qilib tarjima qilinsa, mazmunga muvofiqlik, ya'ni tarjima matnining ikki muhim hususiyati - shakl va mazmun muvofiqlikka erishish mumkin, degan xulosa qilinar edi.

Mukammal yoki adekvat tarjima tushunchasining mualliflari hisoblanmish A.V.Fyodorov va Ya.I.Retsker tarjimani aniq hikoya qilib berish deb tushunmaslikka da'vat etadilar. Tarjima ham hikoya qilib berish ham, agar ular yuqori saviyada amalga oshirilgan bo'lsa, tarjima qilingan til norma qoidalariga muvofiq bo'lishi kerak. Ularning fikricha, mukammal tarjima deganda asl nusxani to'liq aks ettiruvchi, unga muvofiq va u bilan tenglashadigan tarjima - adekvat tarjimadir.

Tarjima nazariyasiga funksional teng ma'nolilik tushunchasi amerikalik olim Yudnin Nayda tomonidan kiritilgan bo'lib, odatda tarjimada teng ma'nolilik asliyat matnini tarjima bilan qiyoslash orqali aniqlanadi. Nayda asl nusxa matnini o'qigan kishi bilan tarjima matnini o'qigan kishining nechog'lik ta'sirlanganligini taqqoslashni taklif etadi. Agar o'sha ta'sirlanishlar o'zlarining umumiy sifatlari bilan bir-biriga muqobil bo'lsa, o'shanda matn tarjimasi asliyatga muqobil sanaladi. Ushbu konsepsiya tushunchasi tarjima muqobilligi haqidagi barcha nuqtai nazarlardan tubdan farq biladi. Tarjima muqobilligi boshqa barcha tushunchalar doirasida asl nusxa va tarjima matnini qiyoslash yo'li bilan aniqlansa, funksional muqobillik o'sha matnlarni qabul qiluvchilarning tildan tashqari ta'sirlanishlarini taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi. Funksional muqobillik tushunchasining afzalligi shundaki, u tarjima muqobilligini istalgan o'zaro fikr almashuv nuqtai nazaridan aniqlaydi.

Bu kabi konsepsiyalardan tashqari olimlar tarjimaning mohiyati yuzasidan bildirgan fikrlariga ko'ra ham ikki guruhga bo'linadilar:

- Birinchi guruh olimlari fikriga ko'ra, bir tildan ikkinchi tilga tarjimani amalga oshirish mumkin emas, chunki tilda millat ruhi aks etadi, uni boshqa tillarga o'tkazish mumkin emas. Bu fikrni maqullagan olimlar qatoriga Gumbold va uning shogirdlari, Jorj Munen, ispan faylasufi Xosu Ortegalarini qo'shish mumkin. Ular uchun tillar o'rtasidagi tafovutlar mavjudligi - ayniqsa, grammatik unsur va kategoriyalarning faqat bir tilga xos bo'lgan shakllarning mavjud ekanligi dastak bo'lib kelmoqda. Birgina o'zbek tilida "-lar" qo'shimchasining hurmat ma'nosida kelishini boshqa hech bir tildagi grammatik variantdosh shakl bilan ifodalab bo'lmaydi.

- Ikkinchi guruh olimlarning fikriga ko'ra, tarjima amalga oshirilishi mumkin bo'lgan jarayondir. Bir tildagi fikrni ikkinchi bir tilning ichki xususiyat va unsurlaridan foydalanib, to'liq ifodalash mumkin degan bu guruh olimlariga L.S.Barxudarov, A.D.Shvetser, Fyodorov, Levitskaya, V.N. Komissarov va boshqalar kiradilar.

Bu ikkinchi guruh tarafdorlari bildirgan fikrlar hozirda tarjima nazariyasida

qo'llanmoqda. Jahon xalqlari tillari tuzilish va rivojlanish jihatidan farqlansa-da, biror bir tilda ifodalangan ish-harakat boshqa bir tilda ham ifodalanishi mumkin.

Tarjima tillararo muloqotning alohida turi sifatida asosiy e'tiborni ikki til tizimining semantik jihatiga qaratishni taqozo etadigan ijodiy jarayondir. Chunki axborotning to'laqonligi asosini turli tillar matnlarining semantik uyg'unligi tashkil etadi. Lisoniy tarjimaning muhim vazifalaridan biri "tarjimaviy ekvivalentlik" tushunchasini muayyan qilishdan iboratdir.

Semantik tarjima muammolari tilning mazmuniy jihatini o'rganish bilan bog'liq lisoniy muammolarning bir bo'lagidan iborat bo'lib, ularning hal etilishi ko'p hollarda semantikaning umunlisoniy jihatlarini o'rganishga bog'liqdir. Shuning uchun ham "ekvivalentlik" tushunchasi lisoniy tarjimaning markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi.

Asliyat va tarjimaning mazmunan to'la-to'kis mos kelishi birinchi darajali zarurat ekanligi tufayli ko'pchilik tadqiqodchilar ekvivalentlikni tarjimaing asosiy belgisi va sharti deb hisoblashadi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, ekvivalentlik tarjimaga berilgan "bir tildagi matnni o'zga tilda shu darajadagi matn bilan almashtirish" kabi ta'rifga mos keladi. Ushbu holda "ekvivalentlik" tushunchasi tarjimaning sifatlilik, yuqori bahoga loyqlik xususiyatini anglatadi. Demak, ekvivalent tarjima "yaxshi", "to'g'ri" tarjima sanalgani holda, ekvivalent bo'lmagan tarjimani to'g'ri tarjima deb bo'lmaydi. Shunday qilib, ekvivalent tarjima asliyat mazmunini o'zga tilga vazifaviy-uslubiy jihatdan to'la-to'kis talqin etishdan iborat jarayondir. Buning ma'nosi shuki, til belgilari yig'indisidan iborat matn mazmuni tarjimada vazifaviy qayta yaratiladi.

Asliyat va tarjima matnlarining ekvivalentlik munosabatlari asosan quyidagicha namoyon bo'ladi:

1. **Ekvivalentlikning birinchi turida** tarjimalarning asliyatga uyg'unligi ko'z ilg'amas darajada namoyon bo'ladi. Mazkur tarjima turida asliyat va tarjima o'rtasidagi munosabatlar asosan quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

- a) leksik tarkib va sintaktik qurilishdagi nomuvofiqlik;
- b) ikki holatda ham bir xil fikr bayon etilayotganligiga qaramasdan, asliyat va

tarjimada ifoda etilgan axborot o'tasida bevosida mazmuniy yoki mantiqiy bo'g'lanishning ko'zga tashlanmasligi;

d) asliyat va tarjima matnlari mazmunlari orasidagi umumiylik darajasi ekvivalent sifatida tan olingan boshqa tarjimalarga nisbatan nihoyatda past.

Bunday tarjimalarni asliyatlari bilan qiyoslash shuni ko'rsatadiki, ular odatda birlamchi matnlar tarkibidagi leksik va grammatik birliklar ma'no va shakllaridan kelib chiqib, "bevosita" amalga oshirilmaydi, balki matnlar tarkibida yashirin holda mavjud bo'lib, butun boshli ifodalar asosida oydinlashadigan "hosila" mazmunlar asosida yaratiladi.

2. **Ekvivalentlikning ikkinchi turida** tarjimaning asliyatga yaqinligi foydalanilgan til vositalari ma'nolarining bir xil emasligi bilan izohlanadi. Bu guruhda asliyat bilan tarjima matnlari tashkil etadigan ko'pchilik so'z va sintaktik qurilmalar o'rtasida bevosita yaqinlik ko'zga tashlanmasa-da, ikki til matnlari ekvivalentlikning birinchi turiga nisbatan mazmunan ko'proq o'xshashdir.

3) **Ekvivalentlikning uchinchi turida** asliyat va tarjima matnlar orasida quyidagi xususiyatlar ko'zga tashlanadi: ikki tilning mazmunan o'zaro mos ifoda vositalari leksik tarkib va goho sintaktik qurilish jihatlaridan to'la uyg'un bo'lmaydilar. Bunday qisman nomuvofiqlikning tarjimada aks ettirilishi harfo'rlikka olib kelmagan holda, mazmuniy-vazifaviy uyg'unlikni yuzaga keltiradi.

4) **Ekvivalentlikning to'rtinchi turida** asliyat va tarjima o'tasidagi munosabat ikki til matnlari leksik tarkiblarining yanada ko'proq o'xshashligi bilan izohlanadi, ya'ni asliyatdagi ko'pchilik so'zlarga tarjima tilida mazmunan yaqin so'zlarni qidirib topish, shuningdek, tarjima tilida asliyatdagi ifoda vositasi sintaktik qurilishiga mos sintaktik qurilishli ifoda vositasidan foydalanish zarurati paydo bo'ladi.

5) **Ekvivalentlikning so'ngi beshinchi turida** asliyat va tarjima matnlari o'rtasida ekvivalentlik yuqori darajada namoyon bo'ladi. Ushbu ekvivalentlik turi ikki til matnlarining bir xil qurilishga egaligi, leksik tarkiblarining to'la o'xshashligi, asliyat asosiy qismlarining tarjimada batamom saqlanishi bilan ajralib

turadi.

Tarjima jarayoni uchun umumiy hisoblangan ekvivalentlik darajalari tarjima nazariyasida asliyat va tarjima tillari o'rtasidagi o'xshashlik, shu bilan birga tarjimaning mukammallik darajasini belgilab olish uchun ham unumli foydalaniladi.

Qisqa qilib aytgan yuqorida aytib o'tilganidek asliyat va tarjima tillarining bir- biriga mazmunan mos kelishi birinchi darajali zarurat, lekin shunday bo'lsada kamdan kam holatlarda ularning mos kelishini kuzatishimiz mumkin. Ana shunday holatlarda biz ekvivalentlik yani asl bo'lmasada tarjima tilida o'sha ma'noni beruvchi muvofiqlikdan foydalanib ham tarjimani to'g'ri amalga oshirishimiz mumkin.

1.3. Kommunikativ maqsad darajasidagi ekvivalentlar.

Jumla ifodalagan mazmunning kommunikativ aktdagi bir qismi kommunikativ maqsadni ko'zda tutadi. Bunday maqsad odatda ko'chirma, yashrin ma'noda ifodalanadi. Bunday ma'no alohida so'zlarning boshqa so'zlar bilan birikib yaxlit qo'shimcha ma'no-mazmun anglatishida kuzatiladi. Bunday axborotni eshitgan, o'qigan retseptor nafaqt alohida so'z ifodalagan ma'noni, balki uning boshqa so'zlar bilan birikib ifodalagan qo'shimcha ma'no-mazmunni ham anglashi, fahmlashi bu orqali asliyatda nima maqsad o'zatilayotganligini bilib ma'lum xulosalarga kelishi talab qilinadi. Bu tarjimada kommunikativ maqsad darajasidagi ekvivalentlik deyiladi. Masalan:

- *Maybe there is some chemistry between us that doesn't mix.*
- *Odamlar xarakterlari bilan bir-birlariga mos kelmasliklari mumkin.*
- *That's a pretty thing to say. — Uyat-e!-Uyalsang bo'lardi!*
- *Those evening bells, those evening bells, how many a tale their music tells.*
- *Qo'ng'iroqning kechki jarangi, jarangi, ne o'ylarga boshlar odamni.*

Birinchi misolda asliyatdagi iboraning kommunikativ maqsadi insoniy munosabatlarning nisbatiga asoslangan va retseptorda aynan shunday munosabat uyg'otuvchi iboralar bilan o'girilgan.

Ikkinchi misoldagi fikr insof, diyonat uyg'otish maqsadini ko'zda tutgan va tarjima tillarida (o'zbekchada) aynan shunday hollarda ishlatiladigan iboralar qo'llanilgan, ammo asliyatdagi kommunikativ maqsad, axborot zamiridagi qo'shimcha ma'no, kommunikativ ta'sir qayta tiklangan.

Uchinchi misolda esa poetik his-hayajonni ifodalash maqsad qilib qo'yilganki, bu o'rinda tarjimon o'z ona tilidagi bor imkoniyatlarni ishga solib asliyatdagi poetik ko'tarinkilikni ifodalash uchun ma'lum bir leksik transformasiyalardan foydalanishga va shu orqali asliyatdagi kommunikativ maqsadni qayta tiklashga uringan.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, kommunikativ maqsad axborotning

kommunikativ aktdagi o'rnini ifodalaydigan umumiy qismining ko'prog'ini tashkil qiladi. Bunda asliyat va tarjima matnlari o'rtasidagi farqlar qo'yidagilarda o'z ifodasini topadi:

-asliyat va tarjima matnlari o'rtasidagi leksik birliklar va sintaktik qurilishning har xilligi;

-asliyat va tarjima matnlaridagi axborotning o'zaro mantiqiy bog'liqligining yo'qligi;

-asliyat va tarjima matnlaridagi real, so'zma-so'z ekvivalentlarnining yo'qligi, biroq umumiy mazmunning birligi.

Shunday qilib ekvivalentlikning bu turida go'yo tarjima tilida asliyatdagidan farq qiluvchi «umuman boshqa narsa» haqida gapirilayotgandek tasavvur tug'iladi. Biroq, kommunikativ maqsad to'g'ri hal qilingan hisoblanadi.

Ekvivalentlikning bu turi odatda asliyatdagi kommunikativ maqsadni tarjima tilida aynan asliyatdagidek ifodalash imkoniyatlari ona tilida mavjud bo'lmagan hollarda qo'llaniladi. Agar tarjimon asliyatdagi axborotni so'zma-so'z tarjima qilganida edi, bu holda retseptor asliyatdagi matn ifodalagan kommunikativ maqsadni butunlay noto'g'ri tushungan bo'lardi.

Masalan, inglizcha *«A rolling stone gathers no moss»* maqolida kommunikativ vaziyat tasvirlanayapti va u inglizcha maqoldagi kommunikativ maqsad «Boylik topaman deb jahon kezma, balki uyingda o'tirib uni yig'» degan ma'noni anglatyapti. Demak, asliyatdagi maqolning maksimal poetik, stilistik funksiyasini qayta tiklagan maqolgina unga to'liq ekvivalent bo'la oladi. Bunday vaziyatda inglizcha maqolga qisman yaqin quyidagi ekvivalentni keltirish mumkin:

Bu maqolni o'zbek tiliga situativ ekvivalent *«Har yerni qilma orzu, har yerda bor toshu-torozi»* qabilida o'girish mumkin.

Ayrim hollarda asliyatdagi va tarjima tilidagi kommunikativ maqsad bir xil kommunikativ vaziyat bilan ifodalanishi mumkin. Chunki har qanday matn real borliqqa bog'liq bo'lgan tasavvur qilinadigan axborotni ifodalashi mumkin:

- *He answered the telephone.* - *U go'shakni ko'tardi..*

- *You are not fit to be in a boat.* - *Seni qayiqqa chiqarish mumkin emas..*

- You see one bear, you have seen them all. - Oq it, qora it, baribir it.

Turli tillarda ekvivalent sifatida ishlatiladigan bu misollarda originaldagi ko'pgina so'zlar va ularning sintaktik strukturalari tarjima tillarida turlicha ifodalanayotganligini ko'ryapmiz. Biroq ular ifodalayotgan kommunikativ maqsad bir xilligi tufayli ularni to'liq ma'nodagi ekvivalentlar deb hisoblash mumkin.

Yana misollarni qiyoslaylik:

1) That's a pretty thing to say. !-Uyal-e!-Uyalsang bo'lardi!

2) He answered the telephone. -U go'shakni ko'tardi.

Birinchi misolda gap turlicha tushunchalar haqida ketyapti, ya'ni ular orasida real bog'liqlik yo'q. Asliyat va tarjima tillaridagi umumiylik faqat gapiruvchi kishining emotsional holatidan kelib chiqib, tinglovchiga dashnom berishligida umumiylik bor.

Ikkinchi misolda asliyat tilida ham, tarjima tillarida ham bir xil vaziyat, bir xil reallik tasvirlanyapti. Biroq bu reallik, o'zbekchada «ko'tarmoq» fe'li bilan ifodalanayapti. Tarjima tilida esa «telefon» so'zi tushirib qoldirilyapti. Chunki axborotning kommunikativ maqsadi telefon trubkasini - go'shagini ko'tarish haqida ketayotganligini anglatib turibdi. Demak ekvivalentlikning bu turida bir xil reallik va kommunikativ maqsad turli so'zlar bilan ifodalanishini ko'ryapmiz. Demak bunday tip ekvivalentlikni quyidagicha ta'riflash mumkin:

1) asliyat va tarjima tillaridagi ekvivalentlarning leksik tarkibi va sintaktik strukturalari turlicha bo'lishi kuzatiladi;

2) Tarjimalarda kommunikativ maqsadning aniq ifodalanishi;

3) Asliyat matnida ham tarjima matnida ham bir xil vaziyat orqali kommunikativ maqsad anglashilyapti. Bu turli tillarga oid axborotlarda real va mantiqiy fikrlash bir xilligi orqali ro'y beryapti..

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kommunikativ maqsad darajasidagi ekvivalentlik tarjimonga juda katta ma'suliyat yuklaydi va bu jarayonda u asliyatda ko'zlangan maqsadni to'g'ri va aniq yetkazib bera olishi kerak bo'ladi.

1.4. Kommunikativ vaziyat darajasidagi ekvivalentlar

Ekvivalentlikning bu turi har bir tilda ma'lum bir vaziyatni bir-birlariga mutlaqo mos kelmaydigan turlicha vositalar orqali ifodalanishini ko'ramizda. Masalan inglizlar «*We locked the door to keep thieves out*», deyishadi. O'zbek tilida bunday vaziyatni «Biz eshikni yopdik o'girilar chiqib ketmasligi uchun» deya tasvirlash bema'nilik hisoblangan bo'lardi. Biroq uni, «Biz eshikni o'girilar chiqib ketmasligi uchun yopdik» deb tarjima qilish mumkin. Lekin o'zbek tilida bunday vaziyatda «O'zingga ehtiyot bo'l, qo'shningni o'g'ri tutma» ekvivalentidan foydalanish mumkin. O'zini har qanday yomon qiliqlar qilishdan tiyadigan ingliz «*I am the last man to do it*» deyishadi. O'zbek tilida shu fikrni aynan shunday vaziyatda ifodalashning imkoniyati yo'q. Chunki «*Men buni qilgan oxirgi kishi bo'laman*» deyilmaydi. Shunday qilib bu vaziyatni boshqacha yo'l bilan ifodalashga to'g'ri keladi. Asliyatda ifodalangan kommunikativ vaziyatni bu o'rinda matnga tayangan holda o'zbekchada «*Nima bo'lsa-da, men bunday qilmagan bo'lardim*» deya o'girsak bo'ladi.

Tarjima tilida asliyatdagi kommunikativ vaziyatga mos ekvivalent yaratish juda ko'p hollarda ma'lum bir tilda gapiruvchi kishilarning muayyan nutq vaziyatlarida shu vaziyatga mos iboralarni ishlatishlariga bog'liq. Bunday so'zlar odatda standart nutq formulalariga aylangan bo'ladi. Masalan, o'zbeklar kimnidir telefonga chaqirishni so'raganlarida «Kim chaqiriyapti deb aytay?», inglizlar: **Who shall I say is calling?** deyishadi. Eshik qaysi tarafga ochilishini ko'rsatish uchun inglizlar eshikka «Pull» yoki «Push», shuningdek yangidan ranglangan narsadan ehtiyot bo'lishlik talab qilinganida o'zbeklar «Ehtiyot bo'ling», inglizlar «Wet paint» deb yozib qo'yishadi.

Agar asliyatda tasvirlangan situatsiya tarjima tilida umum qabul qilingan va qat'iy belgilangan usulda o'girilishi belgilab qo'yilgan bo'lsa, tarjima variantini tanlash asliyatdagi tasvirlangan tasvirdan boshqacha bo'lishi mumkin. Bunday holda asliyat va tarjima tilidagi tasvirlash vositalarning strukturasi juda kam

hollarda bir –birlariga mos kelishi mumkin. Ko'pincha tarjima tilida asliyat tilidagi vaziyatni o'zgacha tasviri ishlatiladi:

- *Stop, I have a gun! (R. Bradbury). -To'xta, otaman».*

- *Reduction on taking a quantity. (J. Galsworthy). - Ko'tarachilarga chegirma beriladi.*

- *Peter's face muscles tightened. (A. Honey). - Piter tishlarini qisdi.*

- *He left the ship on Tuesday. (J.K. Jerome). - U seshanba kuni kemadan tushdi.*

Yuqoridagi misollarda kommunikativ vaziyat turlicha tasvirlanishini , ammo kommunikativ maqsad bir xilligini ko'ryapmiz.

Bir til kollektiviga mansub retseptorda muayyan bir tasavvurni uyg'ota olishga, ular asosida ma'lum bir xulosalarga kelishga yo'naltirilgan kommunikativ vaziyatlarni tarjima tilida qayta tiklash ayniqsa muhimdir. Boshqacha aytganda ma'lum bir til jamoasiga mansub kishilar o'rtasida ularning madaniyatiga oid kommunikativ vaziyatlar boshqa xalqlar madaniyati darajasidagi kommunikativ vaziyatlardan ma'no-mazmun jihatidan bilan farq qilishini unutmaslik lozim. Masalan, bosh irg'ash ma'lum bir xalqlarda tasdiqni ifodalasa, boshqa halqlarda inkorni ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan bunday bosh irg'ashni turli xalqlar turlicha tushunadi. Yoki ko'chaning o'ng tomonidan harakatlanayotgan transport vositasi haqidagi ma'lumot ingliz reseptori uchun ko'cha harakatini buzilayotganligi haqida tasavvur tug'diradi, chunki ularda transport harakatining chap tamonlama yo'nalishi haqida yo'l qoidasi mavjud. Bunday tip ekvivalentlik uchun yana quyidagi misollarni keltirish mumkin:

- *Scrubbing makes me bad-tempered.*

- *Pol yuvish mening ta'bimni xira qiladi.*

- *London saw a cold winter last year.*

- *O'tgan yil Londonda qish qattiq bo'ldi.*

- *That will not be good for you.*

- *Bu sizni yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin.*

Asliyat va tarjima tillaridagi bunday ekvivalentliklarni quydagi xususiyatlarini

ta'kidlash mumkin:

- a)-leksik birliklar va sintaktik strukturalarning xilma-xilligi;
- b)-asliyat va tarjima tillaridagi sintaktik strukturalardagi transformasiyalarning turli-tumanligi;
- v)-tarjima tillarida asliyatdagi kommunikativ maqsad va vaziyatning qayta tiklash imkoniyatining borligi;
- g)-tarjimalarda asliyatdagi vaziyat tasvirining saqlanib qolganligi;

Kommunikativ vaziyat darajasidagi ekvivalentliklarda eksplisitlik va implisitlik munosabatlari har bir til vositalarining o'z sistemasidagi funktsionalligi bilan bog'liq. Bu o'rinda ingliz tilidagi kommunikativ vaziyatning tasviri rus tiliga nisbatan ko'proq implisit ekanligini ta'kidlash lozim. O'zbek tarjimoni uchun bu holda rus tilidagi kommunikativ vaziyatning implisit yoki eksplisitligi muhim. Shu nuqtai nazardan ingliz tilidan rus tiliga va rus tilidan o'zbekchaga o'girilgan asarlarda kommunikativ vaziyat ko'pincha eksplisit usulda tasvirlanganligiga guvoh bo'lamiz. Ingliz yozuvchisi Dj.Golsuorsining rus tiliga K.Korneyev va P.Melkova tarjima qilgan «Конец главы» romanidan olingan kommunikativ vaziyatni eksplisit usulda bayon qilingan quyidagi misollarga e'tibor beraylik:

- *I saw there was a question asked.*
- *Men gazetalardan bu masalaga oid talab borligini o'qidim.*
- *They lay watching.*
- *Ular yotgan hollarida Ferzni kuzatishardi.*
- *"Will you come here, my Miss?" Jean went.*
- *Marhamat qilib bu yoqqa o'ting mile... e miss. Djinna unga ergashib ichkariga kirdi.*
- *People went into rooms as if they meant to stay there.*
- *Har kim o'z xonasida shunday joylashib olishdiki, xuddi bu yerda ular bir umr qolishmoqchidek edi..*

Misollardan ko'rinib turibdiki, inglizcha jumalardagi kommunikativ vaziyatning tasviridagi implisitlik o'zbekcha jumalarda eksplisit usullarda bayon qilinyapti. Bu o'rinda tarjimada ayrim detallarning qoldirib ketilishi yoki

qo'shimchalar kiritishi tarjimonning fikrni yanada mantiqiyroq ifodalashga urinishi bilan izohlanadi. Yana misollarga e'tibor beraylik:

- He opened a desk drawer, took out cigarettes and offered them to Christine.

-... stol tortmasidan sigaretalar olib Kristinaga uzatdi.

Bu o'rinda o'zbekcha tarjimada tarjimon «tortma» so'zini qo'shishga majbur, chunki ruschadagi implisitlikni o'zbekchada shu holicha tarjima qilinsa (masalan stoldan sigaretalar chiqarib) jumla g'aliz chiqardi.

Ko'pincha tarjimada asliyatdagi kommunikativ vaziyatni ifodalovchi belgilarni birlashtirib, umumlashtirish usulidan ham foydalaniladi

Har bir tildagi jumla tuzishdagi o'ziga xos qonuniyatlar ularni ikkinchi tilga o'girishda semantik jihatdan transformasiya qilishga majbur qiladi. Masalan, inglizcha quyidagi maqollar va ularning tarjimalariga e'tibor beraylik:

- It is a good horse that never stumbles; It is an ill wind that blows nobody good. Ular so'zma so'z tarjima qilinsa quyidagi ma'nolarni anglatadi:

Ularni o'zbekchaga o'girsak, semantik jihatdan g'aliz tuyuladigan quyidagi jumlar hosil bo'ladi: *«Turtinmaydigan ot shunchalik yaxshiki, ammo unday otni topib bo'lmaydi», «Hech kimga yaxshilik keltirmaydigan shamol shunchalik yomonki, aslida bunday shamol mavjud emas».* Ammo bunday kommunikativ vaziyat o'zbekchaga umumlashtirilib *«Otning to'rt oyog'i bo'lsa-da, baribir qoqinadi»* kabi qisqa jumla so'zlar bilan o'giriladiki, asliyatdagi kommunikativ vaziyatga mos ekvivalentlik yaratiladi. Maqolning birinchisi shunday tarzda o'girilishi mumkin. Ikkinchi maqol esa *«Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug' bo'ladi»* degan maqolga mos keladi. Biroq har ikkala holda ham asliyatdagi kommunikativ vaziyatga xos implisitlik tarjima tillarida to'lig'icha aks ettirilmay qoladi.

Kommunikativ vaziyat darajasidagi ekvivalentlar yaratishda ko'pincha stilistik maqsadlarda konversial tasvir usulidan foydalaniladi va antonimik xarakterga ega bo'lishi ham mumkin:

- He drove on. They had their backs to the sunlight now.

- U mashina haydashni davom ettirdi. Endi quyosh ularning yelkalarini qizdirardi.

- Do I look all right?

- Mening ko'rinishim yaxshimi?

- Will you marry me, Lady Aline?

- Mening xotinim bo'lishga rozimisiz, ledi Elin?

Shunday qilib kommunikativ vaziyat darajasidagi ekvivalentliklar quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

1) asliyat va tarjima tillaridagi leksik birliklar bir-birlariga yaqin parallel ma'nolar ifodalaydi;

2) tarjimada asliyatga mos sintaktik strukturalar ishlatish imkoniyatining mavjudligi;

3) tarjimada asliyatdagi kommunikativ maqsad, vaziyatni qayta tiklash imkoniyatining mavjudligi.

Ko'pincha jumlaning so'z tartibi ham qandaydir emotsional xarakteristikaga ega bo'ladi. Asliyatda jumla ifodalaydigan emotsional xarakteristikani ifodalash uchun ko'pincha teskari so'z tartibidan foydalaniladi. Bunday hollarda asliyatning bunday xususiyatini tarjimada qayta tiklashda tarjima tilining imkoniyatlaridan foydalaniladi:

- Mine is a long and a sad tale.

- Mening qissam judayam uzun va qayg'uli.

- Open flew the gate and in came the coach.

- Darvozani lang ochishdi va kareta xovliga kirib keldi.

- Him I have never seen.

- Men uni hech qachon ko'rmaganman.

Asliyat va tarjima tillaridagi gap strukturalarining ma'no va stilistik funksiyalarini bir xilligini ta'minlash baribir har bir tilning o'z normalari asosida yuz beradi:

- There might be some small pickings left, from those who would be willing to continue, and later it would be necessary to decide if they were worth while.

- *Ishni davom ettirishni xohlaganlardan ehtimol unga biror narsa qolar. Bu ish shuncha tashvishlarga arziydimi, yo'qmi, buni o'ylab ko'rishga to'g'ri keladi.*

Tarjima tilida asliyatdagi jumla strukturasini aynan qayta tiklash gap strukturasini kengaytirishga, ba'zan bir necha mustaqil gaplar tuzishga olib keladi:

- *A police Advisory Board composed of twelve representatives from police authorities, nine from the Federation, three representing superintendents, and eight representing Chief Officers with the Home Secretary or Home Office representative in the chair, has a general consultative and advisory function on police matters but the Home Secretary need not accept its advice.*

Bu jumla o'z tarkibida uchta mustaqil fikrni ifodalayapti:

(1) konsultativ byuroning tarkibi,

(2) byuro ishida ichki ishlar vazirligining o'rni,

(3) byuroning funksiyalari va huquqlari. Oxirgi fikr yana nisbatan mustaqil ikki g'oyani ifodalab kelyapti.

Yani jumlaning o'zbekcha tarjimasida albatta matnga tayangan holda bajaradi va tarjimon inglizcha jumladagi gap strukturasini saqlashga urinadi:

- *Shuningdek politsiya kuchlarining o'n ikki vakilidan, Federatsiyaning to'qqiz vakilidan, uch kishilik yuqori martabali politsiya zobitlaridan va bosh konstabeldan yuborilgan sakkiz vakildan iborat politsiya konsultativ byurosi ham mavjud. Byuro raisligini ichki ishlar vaziri yoki vazirlik vakili olib boradi. Byuro politsiya mahkamasiga doir konsultativ funksiyalarni amalga oshiradi, biroq ichki ishlar vaziri byuro taqdim qilgan qarorlarni qabul qilmaslik huquqiga ega.*

Ayrim hollarda asliyatdagi gaplar tarjima tiliga qisqartirilib, ya'ni mustaqil gaplar sonini kamaytirish orqali ham amalga oshirilishi mumkin:

- *Despite all opposition these sections have organized a powerful trade-union movement. The mass of the Civil Servants have successfully established important political rights for themselves.*

- Barcha qarama-qarshiliklarga qaramasdan davlat xizmatchilarining bu qatlami qudratli kasaba soyuz harakatini tashkil qilishdi va o'zlari uchun sezilarli darajada siyosiy huquqlarni qo'lga kiritishdi.

Shunday qilib tarjimon faqat lug'aviy ekvivalentlarga suyangani holda emas, matndagi kommunikativ vaziyat darajasidagi ekvivalentlarni yaratishi lozim bo'ladi. Bu o'z navbatidan tarjimondan asliyat matnida ifodalangan barcha fan bilimlardan xabardor bo'lishlikni talab qiladi.

II BOB. GRAMMATIK MUAMMOLAR VARIANTLARINI TANLASH.

2.1. Ingliz va o'zbek tillarining qiyosiy grammatikasi.

Matndagi har bir so'z ma'lum bir grammatik shaklda va barcha so'z sintaktik ketma-ketlikda joylashgan bo'ladi. Grammatik shakl va unsurlar gap bo'laklarining eng muhim xususiyatlaridan biridir. Grammatik shakl va strukturalar faqat matndagi so'zlarning to'g'ri joylashishiga xizmat qilmay, shu matn ma'nosining bir qismi sifatida o'quvchi yoki tinglovchiga mukammalroq axborot yetkazib berishi ham mumkin. Ular matndagi so'zlar va gaplar o'rtasidagi semantik bog'liqlikni ko'rsatib, nutqning ahamiyat kasb etadigan qismini ajratib ko'rsatishga ham yordam beradi.

Muallifning uslubi va matn janrini aniqlash uchun asosiy vosita bo'lib ham sintaktik shakl hisoblanadi. Asliyat matndagi axborot shu tilning leksik unsurlari orqali ifodalangan bo'lsa-da, grammatik shakl va strukturalarining semantik roli tarjimon tomonidan nazardan chetda qolmasligi kerak. Lekin umumiy holatlarda tarjima agar tarjimon asliyatdagi grammatik shakllarni tarjimada bermasa, tarjima ancha muqobilroq amalga oshirilgan hisoblanadi.

Asliyat va tarjima tillari o'rtasida grammatik shakllarning mavjud bo'lmaganligi sababli, tarjimon tarjima tilida aynan asliyat tilidagi grammatik shakllar vazifasini bajarishi mumkin bo'lgan parallel shakllar va grammatik transformatsiyalardan foydalanadi. Bunday holatlarda tarjimon oldida shu kabi variantdoshliklar har doim ham munosib emasligi qiyinchiliklar tug'dirishi tayin. Jumladan, ingliz va o'zbek tillarida fe'lning xoslangan shakli hisoblanmish infinitiv mavjud. Ingliz tilidagi infinitivning o'zbek tilidagi harakat nomidan mavjud bo'lmagan tugallanganlik, nisbat, davomiylik kabi shakllari bor.

Yuqoridagi "tarjimada ekvivalentlik" tushunchasi haqidagi fikrlardan kelib chiqib, mavzuning asosga qaytib keladigan bo'lsak, tarjimada biz tadqiq etayotgan soha - tarjimada grammatik muammolarining kelib chiqishi borasida bosh qotirish va kerakli xulosalar chiqarish bizning asosiy vazifamizdir. Tarjima jarayonida

tarjimon oldida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan qiyinchilik va tushunmovchiliklarni oz bo'lsa-da hal etish oldimizga qo'yilgan maqsaddir. Endi tillar grammatik tuzilishi yuzasidan farqli yoki o'xshash jihatlarni ko'rib o'tamiz. Tarjimaga daxldor grammatik muammolarni ko'rib chiqishdan oldin har ikkala tilning grammatik sistemasini solishtirib, ko'zdan kechirib chiqish zarur bo'ladi va bunda yuqorida aytib o'tganimiz qiyosiy tipologiya metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bizga malumki tarjimaviy tadqiqotlar asosini gap yoki nutq tashkil etadi. Gapning qanday va qay yo'sinda tuzilgani, aniqrog'i qaysi zamon, qaysi bog'lovchi, yordamchi fellar va hokozolar tashkil etayotganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda tarjimondan katta kuch va chuqur salohiyatli bilim talab etiladi. Chunki tarjimon bevosita tarjima qilar ekan bunda albatta bir tildan ikkinchi tilga tarjimada tarjimaning ma'no va mazmunini saqlab qolishda grammatik qoidalardan ko'z yumib o'ta olmaydi. Aniqrog'i tildan tilga tarjimada ikki tilda mavjud bo'lgan o'ziga xoslik hususiyatlari to'sqinlik qilishi mumkin. Albatta har bir tilning o'ziga xos jihatlari borki har bir til bir biridan tamoman farq qiladi. Bunga misol qilib o'zbek va ingliz tillarini oladigan bo'lsak, yuqoridagi fikrga qo'shimcha tarzda morfologik jihatdan o'zbek tilida artiklning yo'qligi, ingliz tilida zamonlar ifodalanishining o'zbek tiliga mos tushmasligi, fellarning turli xilligi, sintaksis jihatdan esa o'zbek tilida ma'nosiz eganing yo'qligi, so'z tartibi, shuningdek bir tarkibli gaplarning ingliz tilida rivojlanmaganligi, gapda remaning ifodalanilishidagi farqlar va hokozolarni ko'rishimiz mumkin.

Shu nuqtai nazardan har bir tilning grammatikasida o'ziga xos birliklar bo'lib, bu birliklar shu tilni boshqa tillardan ajratib turadi. Masalan, o'zbek tilidagi

- *"Sport masteri sambo rekordchilari pedestalida."*

degan jumlada birorta ham o'zbekcha so'z yo'q. Shunga qaramay, ajratib ko'satilgan grammatik belgilar shu gapning o'zbek tiliga mansub ekanligini anglatadi.

Ingliz tilida ham tilning grammatik strukturasini ifodalovchi qator grammatik belgilar bor. Grammatik belgilar grammatik munosabatlarni ifodalaydi. Tillarning umumiy strukturasini yoki xususiyati shu grammatik belgilar vositasida

aniqlanadi. Grammatik munosabatni bildiruvchi belgilar odatda tilda ko'p qaytariluvchi elementlar hisoblanib, ular o'zlarining shu hususiyat bilan leksik birliklardan farq qilib turadi. Masalan, bir betlik matnda grammatik belgilar bir necha bor ishlatilishi mumkin. Ammo leksik birliklarga ta'lluqli belgilar qayta-qayta takrorlanavermaydi. Aks holda til sistemasida tautologik g'alizlik kelib chiqadi.

Grammatik munosabatni ifodalovchi grammatik belgilar soni chegaralangan bo'ladi va ular yopiq sistemani tashkil qiladi. Hozirgi ingliz tili grammatikasi sistemasi uchun quyidagi asosiy beshta belgilar to'plami xosdir:

- 1) fleksiya-qo'shimcha;
- 2) yordamchi so'zlar;
- 3) so'z tartibi;
- 4) prosidiya(intonatsiya, urg'u);
- 5) hosilaviy kontrast.

Hozirgi o'zbek tilining grammatik sistemasi uchun ham beshta asosiy belgilar xosdir:

- 1) fleksiya-qo'shimcha;
- 2) yordamchi so'zlar;
- 3) so'z tartibi;
- 4) prosidiya yoki intonatsiya;
- 5) derivatsion kontrast.

*(J. Bo'ronov "Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi" O'qituvchi, Toshkent-1973.)

Ushbu grammatik belgilarning umumiy vazifasi so'zlarning sintaktik munosabatlarini ifodalashdan iborat bo'lsa-da, ammo ularning har biri o'ziga xos maxsus vazifaslarni bajaradi; ular grammatik kategoriyalarni yasashda qo'llaniladi. Yuqorida ta'kidlangan beshta grammatik belgilar har ikkala tilga xos bo'lishiga qaramay, ular ingliz va o'zbek tillarida har xil qo'llaniladi. Masalan, fleksiya har ikkala tilda bir xil ishlatilsa ham so'z tartibida farq bor. Yordamchi so'zlar har ikkala tilda ham asosiy belgi hisoblanishiga qaramay ingliz tilida ular ko'proq

ishlatiladi.

Fleksiya ingliz va o'zbek tillaridagi asosiy belgilardan hisoblanib, so'zlarning grammatik formalarini yasovchi grammatik morfemalar bilan ifodalanadi. Fleksiya hozirgi ingliz titik aloqaga kiritishda katta rol o'ynaydi. Masalan, John closed his eyes gapida -ed va -s suffikslari so'zlar grammatik aloqaga kirayotganda belgilar bo'lib, -ed zamon kategoriyasini, -s esa otlarda son kategoriyasini ifodalab kelyapti.

Flektiv belgilarning xususiyatiga ko'ra ingliz va o'zbek tillari bir-biridan quyidagicha farq qiladi:

- a) ingliz tilida egalik qo'shimchasi yo'q;
- b) o'zbek tilida kelishik qo'shimchalari yaxshi rivojlangan;
- c) ingliz tilida son kategoriyasining ifodalanishida ko'plab allomorf shakllardan foydalanilsa, o'zbek tilida bu shakl ancha turg'un hisoblanib, asosan, -lar dan foydalaniladi. Flektiv belgilarning har ikkala tildagi qiyosiy jadvali quyidagicha :

	Flektiv signallar		
Tillar	Egalik qo'shimchasi	Kelishik qo'shimchasi	Koplik qo'shimchasi
Ingliz tili	-	+	+
O'zbek tili	+	+	+

Yordamchi so'zlar. Mustaqil, maxsus ma'no anglatmay, mustaqil so'zlarni bir-biri bilan grammatik aloqaga kiritib, ular o'rtasidagi semantik-sintaktik munosabatni ko'rsatuvchi gap bo'laklari vazifasida qo'llanilmaydigan so'zlar yordamchi so'zlar deyiladi. Ingliz tilida yordamchi so'zlarga, asosan, predloglar, bog'lovchilar, o'zbek tilida esa ko'makchi va bog'lovchilar kiradi. Har ikkala tilda ham bog'lovchilarning turlari bir xil bo'lib, vazifalari bir biriga juda o'xshashdir.

Masalan:

- *My friend and I.*

- O'rtog'im va (bilan) men.

Ingliz tilida predloglar kelishik qo'shimchalari o'rnida ishlatiladi, o'zbek tilida esa ko'makchi yoki, aniqrogi, posleloglar kelishik qo'shimchalarining sinonimlari sifatida qo'llaniladi. Predlog va posleloglarning ma'nosi konkret bo'ganligi uchun kelishik qo'shimchalaridan farq qiladi.* J. Bo'ronov "Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi" Toshkent. O'qituvchi. 1973.

Tilning umumiy universaliyasiga binoan ingliz tilida predloglarning otdan oldin kelishi SVO struktura, o'zbek tilida esa posleloglarning otdan keyin kelishi SOV struktura hisoblanadi. Ingliz tilida kelishik shakllarining yo'qolib ketganligi sababli yordamchi so'zlar eng zarur belgilar qatoriga kiritiladi. Ingliz tilida umumiy va chegaralangan egalik kelishiklarigina mavjud. Quyidagi misollarda buni ko'rish mumkin:

Do'stim Toshkentga ketdi. - My friend has gone to Tashkent.

Do'stim Toshkentdan qaytib keldi. - My friend has come back from Tashkent.

Uning akasi Toshkentda ishlaydi. - His brother works in Tashkent.

Misollardan ko'rinib turibdiki, o'zbek tilida kelishik qo'shimchalari orqali ifodalangan grammatik aloqa ingliz tilida yordamchi so'zlar bo'lmish predloglar vositasida ifodalangan.

So'z tartibi. Gap bo'laklari o'rnining qat'iy yoki qat'iy emasligi, ularning semiologik relevant yoki relevant emasligi so'z tartibi orqali ifodalanadi. Barcha tillarda ham gap asosiy bo'laklarining ma'lum o'rne bo'ladi. Ammo gap bo'laklarining o'zaro ketma-ket kelishi grammatik ma'noga ta'sir etishi va ta'sir etmasligi mumkin. Ba'zi tillarda so'z tartibi grammatik signal xizmatini o'tasa, boshqa tillarda grammatik munosabat so'z tartibiga bog'liq bo'lmaydi. So'z tartibining asosiy grammatik signal vazifasini o'tamasligining sababi shu tilda fleksiyaning yaxshi rivojlanganligidir. So'z tartibining qat'iyligi ingliz tili uchun xosdir.

Ayrim hollarda ingliz tilida faqat so'z tartibi yordamidagina so'zlarning o'zaro grammatik aloqalarini aniqlash mumkin. Ingliz tilida fleksiya yaxshi rivojlanmaganligi uchun gapning egasi to'ldiruvchi, to'ldiruvchi esa ega o'rnida

kelishi mumkin emas:

- *Children ate apples.*

- *Bolalar olma yedi(lar).*

Agar ega bilan to'ldiruvchining o'rnini almashtirsak,

- *Apples ate children - Olmalar bolalarni yedi bo'ladi.*

O'zbek tilida so'z tartibining relevantligi qat'iy emas. Faqat ayrim hollardagina so'z tartibi qat'iy. Shunga qaramay o'zbek tilida umumiy so'zlarning ketma-ketligi SOV tartibida bo'ladi. Masalan, normal so'z tartibiga ko'ra: - *Men olma yedim bo'ladi*, - *Men yedim olma* tartibida she'riyatda ma'lum maqsadni ko'zlamasa, umuman grammatik noto'g'ri hisoblanadi.

Yana shuni aytish mumkinki, ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimada kesim konstruksiyasining ifodalanishi orqali bazan grammatik muommoning tug'ilishiga olib keladi. Bizga ma'lumki, gap bosh va ikkinchi darajali bo'laklardan iborat. Kesim ana shunday bosh bo'lak tarkibiga kirib, ega bilan aloqaga kirishadi, yani ega va kesim gapning bosh bo'laklarini tashkil etadi. Tarjimada kesimning keltirib chiqaradigan grammatik muammolariga to'xtaladigan bo'lsak, kesim til sistemalarining farqlarida egaga qaraganda kengroq va serqirra bo'ladi. Haqiqatdan kesim egaga qaraganda grammatik aloqaning katta qismini tashkil etadi. Kesim doimo harakatni bajaruvchi yani to'ldiruvchi va aniqlovchi bilan aloqada bo'ladi.

Ma'lumki ingliz tilida kesim ikki shakli orqali ifodalanadi, yani harakatni bildiruvchi fe'llar va borliqda mavjudlikni bildiruvchi fe'llar. Birinchi guruh fellari kesim vazifasida kelganida o'zbek tilidagi harakat fellaridan unchalik katta farq qilmaydi. Ikkinchi guruh fe'llari yani "to be", va "to have" fellari o'zbek tillariga "bo'lmoq" va "ega bo'lmoq" deb tarjima qilinsada, lekin gap tarkibida kelganida butunlay boshqa holatda duch kelishimiz va bunda boshqa ma'noning ifodalanishini kuzatishimiz mumkin. Masalan birgina "to be" fe'lining o'zini olib qaraydigan bo'lsak o'zbek tiliga "bo'lmoq" degan ma'noni bersada, bazan "bor bo'lmoq" degan ma'noda ham keladi.* (Apallova M. A. "Грамматические трудности перевода". - Moskva: Международные отношения, 1977. p29.)

Ma'lumki ushbu ma'nolarda faqat o'tgan va kelasi zamonda ishlatilib

tarjima qilinishi mumkin. Masalan :

- *They were in the class at 8 o'clock .*
- *Soat sakkizda ular sinfda edi.*
- *He will be at work in a few minutes.*
- *U bir necha daqiqadan so`ng ishda bo`ladi.*

Lekin hozirgi zamonda kelgan bo`lsayu, biz uni o`zbek tiliga tarjima qilganimizda u o`z ma`nosini yo`qotadi, yani tarjimada tushib qoladi. Masalan:

- *Where is she? She is at home.*
- *U qayerda? U uyda.*

Ko`rinib turibdiki hozirgi zamonda kelganda tarjima tilida tushib qolayapti, ammo hozirgi zamon shalida o`zbek tilida ko`makchi fel tushib qolsa, yani o`z ma`nosini yo`qotsada, ingliz tilida uning bo`lishi shart. Shuningdek "to be" o`zbek tiliga 'bo`lmoq' deb tarjima qilinsada lekin tarjimada faqat shu ma`noga tayanish qiyinchilik tug`diradi. va u matnga tayangan holda yani vaziyatidan kelib chiqib `boshqacha ma`noda kelishi ham mumkin. Masalan:

- *The trouble was we didn't know their number.*
- *Muammo shundan iborat ediki, biz ularning telefon raqamini bilmagandik.*

Shuningdek o`zbek va ingliz tillarida shaxsi no`malum gaplarning ifodalanishidagi farqli jihatlarni ham olib qaraydigan bo`lsak, masalan ular o`rtasidagi bunday farqni quydagi misol orqali kuzatishimiz mumkin:

- *It is five o'clock now.*
- *Hozir soat besh.*

Bu gapning ikkala tilda turlicha ifodalanishi , bu ham ular o`rtasidagi yana bir farqli jihati va bunday vaziyatlarda tarjima qilish uchun biz albatta ikki til grammatik jihatlariga suyanamasdan ilojimiz yo`q.. Gap shundaki ingliz va o`zbek tilidagi shaxsi no`malum gaplarning ifodalanishi tamoman farq qiladi. Yani farqi shuki, ingliz tilida har doim ega bo`lishi shart. Agarda gapning egasi bo`lmagan

tag'dirda esa "it" shartli ega orqali ifodalanishi va u to be ko'makchi felining kesim vazifasida kelishi bilan ifodalanadi.

Shu bilan bir qatorda tilda prosidiya hodisasi haqida gapiradigan bo'lsak, u har xil grammatik kategoriyalarni modallikni ifodalashda, darak gaplarni so'roq gaplarga aylantirishda bir so'z turkumini ikkinchi so'z turkumidan yasashda ishlatiladi. U intonatsiya, urg'u va shu kabi supersegment belgilar bilan beriladi. Masalan, quyidagi ikki gapdan birinchisi darak gap bo'lgani uchun pasayuvchi intonatsiya bilan ikkinchisi esa so'roq gap (General Question) bo'lganligi uchun ko'tariluvchi intonatsiya bilan talaffuz etiladi:

- *He has come.*

- *Has he come?*

Ayrim so'zlarda urg'uni o'zgartirish yo'li bilan bir so'z turkumini ikkinchi so'z turkumiga aylantirish mumkin: object-object* Bu ham o'z navbatida muammoning kelib chiqishiga sabab bo'ladi

Biror so'z turkumini so'z yasovchi affikslarga asoslanib boshqa so'z turkumiga qarshi qo'yish derivatsion kontrast deb yuritiladi. Masalan, ingliz tilida so'z otlar -er (writer), -ship (friendship), -ness (happiness) suffikslari bilan, sifatlar -ful (delightful), -less (armless) suffikslari bilan, fe'llar -ize (organize), -fy (simplify), -en (blacken) kabi suffikslar bilan aniqlanadi. Ko'rsatib o'tilgan affiksal morfemalar bir vaqtning o'zida ingliz so'zlarini aniqlab keluvchi belgilar vazifasini o'tamoqda. O'zbek tilida ham turli so'z turkumlarining turli derivatsion kontrastlari bor. Bu morfemalar ma'lum darajada o'sha so'z turkumlarining grammatik belgi vazifasini bajaradi. So'z yasovchi morfemalarning shakl yasovchi morfemalardan asosiy farqi yana shundaki, shakl yasovchi grammatik belgilar asosan shu tilning o'ziga xos bo'ladi. Derivatsion kontrast ingliz tilida ham o'zbek tilida ham asosiy grammatik belgi hisoblanmaydi.

Shunday qilib, ingliz va o'zbek tillari turli oilalarga mansub bo'lishiga qaramay, ulardagi grammatik belgilar bazi hollarda o'xshashdir.

U yoki bu tilning grammatik shakllarining bir-biriga mosligi bu tillarning kelib chiqishi bilan bog'liq. Shundan tillarning grammatik tarkibida morfologik,

sintaktik jihatdan o'xshashlik yoki nomutanosiblik kelib chiqishi mumkin. Odatda, faqat tarjima jarayonida ko'zga tashlanadigan bunday o'xshashlik yoki nomutanosiblik har ikkala tilning ichki hususiyatlari hisobiga yuz beradi.

Demak, bir tildagi grammatik shakllarni boshqa tilda berish tarjimaning maqsadini kasb etmaydi; uning maqsadi asliyatdagi ma'noni tarjima tilida mavjud bo'lgan shakllar bilan berishdir. Shundagina matndagi uslubiy vositalarni boshqa tildagi grammatik shakllar bilan ifodalagan holda, matnni qayta yaratish mumkin. Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, xorijiy tillarni o'rganish va ularda gapirish so'zlovchining o'ylagan fikrini bir vaqtning o'zida yuzaga kelishi bunda tarjimadagi matnni qayta yaratish kabi murakkabliklar yuzaga kelmaydi.

Har bir tilning boshqa tillardan ajralib turuvchi til tizimi mavjud. Shunday tillar jumlasiga ingliz, rus va o'zbek tillari kiradi. Ularning grammatik sistemasi tipologik va genetik jihatdan ajraladi. Ingliz va rus tili Hind-Yevropa tillari oilasining german va slovan tillari guruhiga kiradi. O'zbek tili esa Oltoy tillari oilasining turk tillari guruhiga kiradi. Morfologik talqin bo'yicha ingliz va rus tillari o'zgaruvchan, tashkil topish jihatidan analitik xarakterga va yozilish jihatidan sintetik xarakterga ega. O'zbek tili esa aglyutinativ til hisoblanadi.

Quyidagi misollarni qiyoslab o'rganish orqali tillar o'rtasidagi farqni kuzatish mumkin:

- *The hunter killed the wolf.*

- *Ovchi bo'rini o'ldirdi.*

- *Охотник убил волка.*

- *I go to school.*

- *Men maktabga boraman.*

- *Я иду в школу.*

Bu misoldan biz rus va ingliz tillaridagi gap tuzilish tarkibi bir xil ekanligini ko'ramiz. Ikkala tilda ham darak gapda so'z tartibi quyidagicha ifodalanadi:

SUBJECT+PREDICATE

Bunda ingliz va rus tillarida ega (S) gapning boshida, kesim (P) esa egadan keyin keladi. Agar kesim o'timli fe'l bilan ifodalansa, kesimdan keyingi o'rinda

to'ldiruvchi keladi:

$$S + P(Vtr) + O$$

Ingliz tilida gapda so'z tartibi o'zgartirilsa gap ma'nosining buzilishiga olib keladi, lekin ba'zida rus tilida gaplarda so'z tartibini o'zgartirish ham mumkin:

Охотник убил волка.

Я иду в школу.

Волка убил охотник.

В школу иду я.

Ammo o'zbek tilida gaplarda so'z tartibi ingliz tilida gaplardagi so'z tartibida tubdan farq qilib, uni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$S + O + P(Vtr)$$

Ingliz tilidagi gapning o'zbek tilidagi tarjimasini qiyoslab o'rganganimizda, so'zlarning joylashish tartibini va to'ldiruvchining morfologik belgilarini o'zgartirib berishimiz ham mumkin:

- *Ovchi bo'rini o'ldirdi.*

- *Ovchi bo'ri o'ldirdi.*

- *Men maktabga boraman.*

- *Men maktab boraman.*

Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, gapda so'z tartibi ingliz va o'zbek tillarida umuman farq qiladi. Bulardan tashqari o'zbek tilidagi tarjimada "-ni" qo'shimchasi qo'shilishi gapga yanada aniqlik kiritib kelmoqda.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, asliyat tilida mavjud bo'lgan shakl va strukturalar tarjima tilida mavjud bo'lmasligi mumkin va bunday nomuvofiq unsurlarni tanlash ustida gap borganda tarjimon alohida e'tibor bilan tarjima amalga oshirishi lozim. O'zbek tilida muqobili yo'q bo'lgan ingliz tilining grammatik shakllari gap bo'lagi, so'z turkumi, ma'lum turkumga xos grammatik shakllar bo'lishi mumkin.

Ingliz va o'zbek tillaridagi grammatik muvofiqlikni morfologik va sintaktik jihatdan moslashuviga qarab, uch turga bo'lish mumkin:

1. To'liq muvofiqlik;

2. Qisman muvofiqlik;

3. Umuman muvofiq kelmaslik.

To'liq morfologik muvofiqlik

To'liq morfologik muvofiqlik tildagi bir xil grammatik kategoriyalik tillarda bir xil ma'noni anglatganda kuzatiladi. Ingliz va o'zbek tillar grammatikasida ham son kategoriyasi bir-biriga juda yaqin.

Number

Singular	Plural
<i>book</i>	<i>books</i>
<i>kitob</i>	<i>kitoblar</i>

Qisman morfologik muvofiqlik

Qisman morfologik moslikda tillar o'rganilayotganida ularning grammatik kategoriyalari bir xil ma'noni beradi, lekin ma'nosi ma'lum darajada farqlanadi. Buni otlardagi kelishik grammatik kategoriyasida ham ko'rish mumkin. Olingan ikkala tilda ham kelishik ma'nosi bir xil lekin ularning soni va ifodalayotgan ma'nolari nuqtai nazaridan farqlanadi. Ingliz tilida ikki kelishik mavjud, lekin o'zbek tilida esa kelishiklar soni oltitadan iborat. Garchi o'zbek tilidagi kelishiklar miqdori qisman mos kelsa-da, ularning anglatgan ma'nolari mos kelmasligi mumkin. Tillardagi kelishik kategoriyasi va boshqa grammatik kategoriyalardagi farqlar odatda tarjima qilnayotgan tilning boshqa vositalari bilan ifodalanadi.

Umuman morfologik mos kelmaslik

Bu holatni biz tillarda grammatik kategoriyalarning umuman mos kelmasligida uchratishimiz mumkin. Masalan, o'zbek tilidagi egalik kategoriyasi shaxslarda egalik qo'shimchalari orqali ifodalanadi.

uzbek	ingliz
<i>kitob-im</i>	<i>my book</i>
<i>kitob-ing</i>	<i>your book</i>
<i>kitob-i</i>	<i>his/her book</i>

Ingliz tilida otlarning aniq yoki noaniqligini ifodalash uchun ma'lum grammatik vosita, ya'ni artiklardan foydalanamiz. Ammo ushbu grammatik vositaning o'zbek tilida mos varianti mavjud emas. Bu holda artikllarni ifodalashda tilning leksik va sintaktik vositalardan foydalaniladi.

Ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi grammatik muvofiqlikni sintaktik jihatdan moslashuv ham quyidagi turlarga bo'linadi:

To'liq sintaktik muvofiqlik

To'liq sintaktik muvofiqlik deganda, tarjima jarayonida tillar o'rtasida struktura mosligi, so'z birikmalarida so'zlar va gaplar moslashuvi tushuniladi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan tillarda to'liq sintaktik muvofiqlik kamdan-kam hollarda uchraydi. To'liq sintaktik moslikni "Adjective + Noun" so'z birikmasida kuzatishimiz mumkin:

red flags - qizil bayroqlar

Xuddi shunday holatni sodda gaplarning kesimi o'timsiz fe'l bilan ifodalanganda ham ko'rishimiz mumkin:

He laughed. - U kuldi..

Qisman sintaktik muvofiqlik

Qisman sintaktik muvofiqlikda so'z birikmalarda ma'nolar mosligi tushuniladi, lekin iboralar strukturasida farqlanadi.

So'z birikmalaridagi qisman sintaktik muvofiqlikni quyidagi misollarda tushuntirish mumkin:

1. Aniqlovchilar so'zlar joylashishida shaklanadi. Olib qaraganda ingliz tili o'zgarishlarga boy bo'lmagan til hisoblanadi, aniqlovchilar asosan so'zlar joylashishi vositasida "Noun1 + Noun2" strukturasiga binoan yasaladi va quyidagi turdagi munosbatlarni ifodalaydi:

Attributiv:

English *glass-tube*

Uzbek *shisha naycha*

Bu misolda ingliz va o'zbek tillarida farq kuzatilmayapti. Egalik qo'shimchalari:

house-plan N1+N2

uy plani N1+N2(i)

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, ingliz tilida o'zgarish sezilmasdan, o'zbek (-i qo'shimchasi) tilida o'zgarish kuzatilayapti.

Yana bir misolni olib qaraydigan bo'lsak:

workers club N1+N2

ishchilar klubi N(-lar+ning)+N2(i)

O'zbek tilidagi tarjimai sezilarli bo'lib kelmoqda.

Qisman sintaktik muvofiqlik birinchi komponenti son bilan ifodalangan so'z birikmalarida ham kuzatiladi:

one book two books three books four books five books

bitta kitob ikkita kitob uchta kitob to'rtta kitob beshta kitob

Ingliz, va o'zbek tillarida ham so'zlar kombinatsiyasi bir xil bo'lsa-da, ko'plikning ifodalanish usuli ikkinchi tarkibiy qismda farqlanadi.

English Num+Npl.

Uzbek Num+Nsing.

Bundan ko'rinadiki, o'zbek tiliga nisbatan ingliz tili misollardagi ikkinchi komponentda o'zgarish mavjud.

Umuman sintaktik mos kelmaslikda asliyat tili bilan tarjima qilinayotgan til o'rtasidagi ma'lum sintaktik konstruksiyalar yetishmasligi - umuman mos kelmasligi tushuniladi. Ingliz tilida bu sintaktik konstruksiyalar gapning to'liq bo'lmagan yoki ikkinchi darajali kesimlilikini tashkil qiladigan fe'ning shaxssiz shakllari bilan keladi. Predikativ konstruksiyalarning semantik vazifasi harakatlarning bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lishi va o'zaro vaziyatda moslashishini ifodalashi mumkin. Ushbu konstruksiyalar bilan gapning bosh bo'laklari o'rtasida rasman grammatik bog'liklik bo'lmasa-da, ular o'rtasida doim muvofiqlik mavjud. Predikativ konstruksiyalarda harakat yoki holat ishtiroki darajasi murakkab, qo'shma va sodda gaplar tarjimasida aniqlanadi:

- I heard the door open.

- *Eshik ochilganini eshitdim.*

Ingliz tilidagi gapda kesim konstruksiyasi to'ldiruvchi vazifasida kelib, umumiy kelishikdagi ot va infinitiv bilan yasalgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ingliz va o'zbek tillari garchi boshqa boshqa oiladan bo'lishiga qaramasdan, ularda bazan grammatik jihatdan o'xshash va noo'xshashlik jihatlarini ham uchratishimiz mumkin. Shunday ekan tarjimada har qanday holatda ham ularning ushbu jihatlarini nazardan chetda qoldirmasligimiz zarur.

2.2. Tarjimada grammatik transformatsiyalar.

Tarjimaning umumiy nazariyasiga kelsak, birinchi navbatda, tarjima jarayonida yuzaga keladigan muvofiqliklar qanday holatlarda bir birini to'liq to'ldirishi mumkin degan savol paydo bo'ladi.

Shubhasiz, ma'lum bir tillar o'rtasida amalga oshiriladigan tarjimaning muammolarini hal etishda bu tillarning har biri uchun xos bo'lgan grammatik xususiyatlarga diqqatni qaratish lozim. Vaholangki, bir necha tillar amalga oshirilayotgan tarjima natijasida ular o'tasidagi muvofiqliklar, o'xshashliklar yoki farqli jihatlarni aniqlash uchun zamin yaratiladi. Bunday holatlarda ulardagi xususiyat va xarakterlarni ham nazardan qochirmaslik kerak. Masalan, o'zbek tili grammatikasiga xos fe'l nisbatlari, otning shakl yasovchi qo'shimchalari, shaxs-son qo'shimchalariga javoban ingliz tilidagi zamon aspektlari, aniq va noaniq artiklar, rus va nemis tillaridagi kelishiklarning xilma-xilligi va turlanish shakllarining mavjudligi bu tillar o'rtasida amalga oshiriladigan tarjima jarayonida tarjimon oldida katta muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bir vaqtning o'zida boshqa tilning grammatik shakllarning berilishi tarjima tilidagi grammatik shakllarga mos tushmaydigan hollarda tarjima tili jihatdan to'g'ri hisoblanadigan variantlari bilan almashtirilishi maqsadga muvofiqdir. Grammatik tarkibdagi nomutanosiblik aslyatdagi biror morfologik birlikning tarjima tilida sintaktik yoki leksik birliklarning qo'shilishi yoki olib tashlanishiga olib kelishi mumkin. Har doim ham ko'rinavermaydigan tilning grammatik xususiyatlari tarjima jarayonida aniq va yaqqol ayon bo'ladi.

Demak, hech qanaqa nazariya - shu jumladan tarjima nazariyasi ham, umumiy lashtiruvsiz mavjud bo'lmaydi; umumiy lashtiruvning o'zi ham ularning qurilish asosiga va joylashuviga qarab farqlanadi. Har doim aslyat va tarjima tillarining o'ziga xos bo'lgan jihatlari yondashish kerak. Shuning uchun ham mana shunday noyob umumiylik holatlari tarjima tilida o'zining munosib ma'nosini topishi uchun tarjimondan kuchli mashaqqat talab etadi.

Shunday umumiyliklardan biri borki, uni aniq grammatik muammolar

analizdan o'tkazish lozim. Bu quyidagicha hukm chiqarishga olib keladi: odatiy grammatik bog'liqlik muvofiqlikning mavjud emasligi tufayli yuzaga kelmaydi; ko'pincha u adabiy va uslubiy normalar mos tushmaydi. Ayniqsa, asliyat va tarjima tillaridagi so'zlar tartibi va miqdori; grammatik kategoriyalari va lug'aviy ma'nolari muvofiq kelishi juda ham noyob hodisalar hisoblanadi.

So'zning grammatik kategoriyalari o'zgarishi, o'rin almashtirilishi yoki qo'shimcha shakllarning qo'shilishi tarjima jarayoni uchun odatiy hol hisoblanadi. Bilvosita tarjima qilinayotgan matnda bu kabi o'zgarish va qo'shimchalar dastlab o'quvchiga asliyat matn ma'mosini yetkazib berilgan bo'lsa, endi keyingi tarjimonga qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

Asliyat va tarjima tillarining grammatik tarkibida uch xil nomutanosiblik yuzaga kelishi mumkin:

Birinchi holat. Bunda asliyat tilidagi grammatik unsurlar tarjima tilida mavjud bo'lmaydi (ingliz tilidagi artikl kategoriyasi, aniq va noaniq artikl orasidagi farq; zamon aspektlari shakllari).

Ikkinchi holat. Bunda tarjima tilida asliyat tilida mavjud bo'lmagan lekin tarjimada foydalanmaslikning iloji bo'lmagan grammatik unsurlar mavjud bo'ladi (o'zbek tilida fe'l mayllari, otlarning shakl yasovchi qo'shimchalari).

Uchinchi holat. Bunda tarjima tilida asliyat tilidagi grammatik unsurlar mavjud bo'ladi, lekin bajaradigan amaliga ko'ra farqlanadi.

Tarjima jarayonida ikki til grammatik va leksik qatlamlari o'rtasida yuzaga keladigan nomuvofiqlik transformatsion usullar o'rqali amalga oshiriladi.

Bir tildagi to'liq ma'lumotni boshqa bir tilga o'tkazish uchun bir qancha interlingvistik leksik va grammatik transformatsiya turlaridan foydalanishga to'g'ri keladi. Quyida biz tarjimon oldida mana shunga o'xshash muammolar tug'ilganda foydalanish ko'zda tutilgan grammatik transformatsiya turlarini ko'rib chiqamiz:

- ❖ **Grammatik o'rin almashtirish;**
- ❖ **Grammatik transpozitsiya;**
- ❖ **Grammatik tushurib qoldirish;**

❖ Grammatik qo'shish.

1. Grammatik o'rin almashtirish - deganda bir gap boshqa bir gap bo'lagi bilan yoki biror so'z shaklini boshqa so'z shakli bilan almashtirish tushuniladi. Shunga qarab grammatik o'rin almashtirishni 2 turga bo'lish mumkin:

- a) gap bo'laklarini almashtirish;
- b) so'zning grammatik shakllarini almashtirish.

O'rin almashtirish orqali tarjima qilishning bir necha sabablari mavjud:

- tarjima qilinayotgan tilda bir yoki bir nechta grammatik shakl yoki konstruksiyalarning yo'qligi;
- shakl va konstruksiyalarning birikishida muvofiqlikning moslashuvlar va so'zlarning ishlatilishi;
- xuddi shu ma'nodagi gap bo'lagining yetishmasligi.

Quyidagi misolda ingliz tilidagi ikkita ma'lum ma'noga ega bo'lgan gapning o'rin almashtirish orqali fe'llarning ma'nolari integratsiya qilinishida ko'rishimiz mumkin:

- *He says he will come*
- *U kelishini aytayapti*
- *He said he would come*
- *U kelishini aytdi*

O'zbek tilida shunga o'xshash so'z shakli bo'lmasdan, so'zlarning ma'nolari boshqa grammatik vositalar yordamida ifodalanadi.

O'zbek tilida fe'lning kategoriyasi sifatdashning qo'shimchasi "-jak" bilan, yoki harakat nomi "-(i)sh" bilan ishlatiladi.

Gap bo'laklarini o'rnini almashtirishning 2 turi mavjud:

- a) shartli
- b) ixtiyoriy.

Tarjimada shartli o'rin almashtirish asliyat tilidagi gap bo'laklarida ishlatilgan vositaning tarjima qilinayotgan tilda yo'qligida yoki mos kelmasligida kuzatiladi: masalan, ingliz tilidagi artikl.

O'zbek tilida artikl bo'lmaganligi uchun uni tarjima qilishda turli xil leksik va grammatik vositalardan foydalanamiz. Artikllar gumon, ko'rsatish olmoshlari, son va urg'u bajaradigan vazifalarda ham kelishi mumkin. Shuning uchun, o'zbek tilida artikllarning ma'nosini beradigan adekvat vosita orqali ifodalash lozim:

- *When we were in Majorca, there was a Mrs. Leech there and she was telling us most wonderful things about you. (A. Christie)*

- *Biz Malorkada bo'lganimizda, u yerda qandaydir missis Lich bor edi. U bizga siz to'g'ringizda juda ko'p qiziqarli narsalarni aytib berdi.*

Tarjimaning o'zbek tilida gumon olmoshlari noaniq artikl o'rnida foydalanilgan.

Ixtiyoriy o'rin almashtirishda tarjima kontekstdagi ma'noga qarab o'zgartiriladi:

- *The climb had been easier than he expected.*

- *Ko'tarilish u o'ylagandan ko'ra osonroq bo'ldi.*

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, ingliz tilidagi aniq artikl bilan kelgan ot o'zbek tilida infinitiv bilan berilgan.

2.Grammatik transpozitsiya deganda, original tilda tarjima qilinayotgan tilga lingvistik elementlarning joy o'zgarishi tushuniladi. Transpozitsiyaning 2 turi mavjud:

1) gap bo'laklarining o'rin almashishi

2) qo'shma gaplarda sintaktik bog'liqlik turlari.

Masalan:

- *Active defenders of the national interests of their people, the Actives, are at the same time true internationalists. (W. Foster)*

- *Aktivlar o'z xalqlarining milliy manfaatlarini dadil himoya qiladilar va ayni bir vaqtda ular haqiqiy internatsionalistlar hamdir.*

- *A big scarlet Rolls Royce had just stopped in front of the local post office. (A.*

Christie)

- *Mahalliy aloqa bo'limi oldida qizil rangdagi katta Rolz Roys avtomashinasi to'xtadi.*

Ingliz tilida gapning semantik ma'nosi noaniq artikl bilan ifodalangan, o'zbek tilida esa bu ikkinchi darajali ma'no hisoblanadi.

Ingliz tilidagi murakkab qo'shma gapni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida bosh gap va ergash gaplar joyi o'zgarishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, murakkab qo'shma gapdagi so'zlar tartibi boshqa tillarda har doim ham mos kelavermaydi. Masalan,

- *A remarkable air of relief overspread her countenance as soon as she saw me.*

- *Meni ko'rishi bilanoq, uning yuzida yengil tortganlik alomati paydo bo'ldi.*

3. **So'zlarni tushirib qoldirish** - grammatik transformatsiya turi bo'lib, bu tillarda ma'lum grammatik komponentlarning qisqarishida kuzatiladi:

- *He raised his hand.*

- *U qo'lini ko'tardi.*

4. **Grammatik qo'shish** grammatik transformatsiyaning shunday turidirki, unda ifodalab bo'lmaydigan grammatik va semantik komponentlarni aslyat tilida uchratishimiz mumkin:

- *Also, there was an awkward hesitance at times, as he essayed the new words he had learnt.*

- *Ba'zida u yaqindagina o'rgangan yangi so'zlarini talaffuz qilishga hozirlab, to'xtab qolardi.*

Bunda, fe'lning ma'nosi o'zbek tilida "yaqindagina" ravishi bilan ifodalangan.

Ikki til o'rtasidagi nomuvofiqlik grammatik va leksik transformatsiyani amalga oshirish zaruratini keltirib chiqarar ekan, bunda tarjimon iloji boricha aslyatdagi kognitiv ma'noni tarjima tilida ham o'sha darajada berishga harakat qiladi. Tarjimaning amalga oshirilishida grammatik jihatdan nazar solganda

ko'pincha ikki til grammatik qatlamidagi farqli, ayniqsa birida mavjud bo'lgan unsur ikkinchisida yo'q bo'lgan holat ko'zga tashlanishi ma'lum. Albatta, bu sohada faoliyat yuritadigan istalgan kishidan shu haqdagi fikrini so'rasangiz, ingliz tilidagi artiklning o'zbek tilida mavjud emasligini birinchi navbatda aytishi tayin.

Ma'lumki, ingliz tilidagi artikllar o'zbek tarjima qilinmay, boshqa bir talay kontekstual unsurlar yordamida beriladi. Masalan,

- *"The man who gave me the book"*

jumlasi o'zbek tiliga tarjima qilinganda, aniqlanib kelayotgan *"the man"* oti o'zbek tilida yoyiq aniqlovchi bilan aniqlanib kelayaptiki, aslyatda bu birlik ergash gapga teng edi. Bunday holatlar tarjimon oldida katta qiyinchiliklarni tug'dirmaydi. Lekin, shunday sharoitlar ham bo'ladiki, komunikatsion jarayonda artiklning ahamiyati juda muhim bo'ladi va har qanday holatda ham tarjimada ko'rsatilishi kerak. Quyidagi lingvistik hukmga e'tibor qarating

"...to put it in terms of linguistics: a sentence is a concrete fact, the result of an actual act of speech. The sentence is an abstraction. So a sentence is an element of that language."

Ko'rinib turibdiki, hukm bir vaqtning o'zida ham aniq fakt, ham mavhumlik bo'la olmaydi. "a sentence" (istalgan alohida gap) bilan "the sentence" (gap turi) o'rtasidagi farq o'zbek tilida ochib berilishi kerak. Ikki tilda bir xil kategoriyalarning bo'lishi ularning subkategoriyalari ham bir bo'ladi degan hukmni keltirib chiqarmasligi kerak, va bu ekvivalentlikning yo'qligi bilan tushuntiriladi.

Jumladan, ko'pchilik Roman-German tillariga xos bo'lgan "infinitivli to'ldiruvchi" qurilmasining

- *"I expected the travelers to be here by this time",*

- *"Ich sah ihn arbeiten"*

kabi jumalalarda qo'llanishi rus tiliga tarjima qilinganda ega-kesim munosabati yuzaga keladi:

- *"Я рассчитывал, что путешественники к этому времени будут здесь", "Я видел, как он работал".*

Vaholangki, agar ingliz yoki nemis tilidagi matn o'zbek tiliga rus tili orqali

bilvosita tarjima qilinsa ham bir xil grammatik vositalar qo‘lanilayapti: *"Men sayohatchilarni bu paytgacha shu yerda bo‘lishlarini kutgandim"*, *"Men uni ishlayotganini ko‘rdim"*. Bu yerda gaplar rus tiliga tarjima qilinganda asliyatdagi infinitiv qurilmalar to‘ldiruvchi ergash gap shaklida tarjima qilindi. O‘zbek tiliga tarjima qilinganda esa, tarjimaning bevosita yoki bilvosita ekanligiga ham bog‘liq bo‘ladi. Masalan, tarjimon o‘zbek tiliga bevosita tarjima qilsa, yuqorida keltirilgan misol shaklida; bilvosita rus tilidan tarjima qilinsa,

- *"Men kutgandimki, sayohatchilar bu paytgacha shu yerda bo‘ladi"*,
"Men ko‘rdimki, u ishlayapti"

shaklida ham tarjima qilinishi mumkin. Albatta, bunday sodda misollarda muammoning asl mohiyatini ochib beruvchi jihatlar yo‘qdir, lekin izlanishlar davomida munosib bo‘lgan va magistrlik dissertatsiya ish mavzusini ochib beruvchi nazariya va xos misollar bilan tushuntirib, izohlab o‘tamiz.

Ingliz tilidagi bog‘lovchisiz aniqlovchi ergash gaplardagi tuzilish strukturasini o‘zbek tiliga tarjima qilganda, masalan *"the book I have been reading"* jumlasini o‘zbek tiliga tarjimasi -*"men o‘qiyotgan kitob"* shaklida, ya’niki, asliyatdagi aniqlovchi ergash gap tarjimada fe’lning xoslangan shakli vositasida beriladi. Bunday hollarda ham yuqorida ta’kidlab o‘tilgan fikr ya’ni tarjimada grammatik shakllar birlamchi emas, aksincha, mazmun birlamchiligiga yana bir bor ishonch keltirishimiz mumkin.

Zero, shularni yodda saqlashimiz kerakki:

- tillar o‘rtasidagi tafovutli jihatlar har doim mavjud bo‘lgan;
- tillar o‘rtasidagi bunday xususiyatlar doirasi cheklangan;
- bunday xususiyatlarni tarjimada berilishi taqozo etilsa ham, bu variantlarning berilishini bir qolipga solib bo‘lmaydi.

O‘zbek tilida artiklning mavjud emasligi tarjima nuqtai nazaridan qaralganda, murakkablikka sabab bo‘lsa-da, ingliz tilida muhim orin egallab, otlarning ham leksik, ham sintaktik vazifasini belgilab beruvchi aniq hamda noaniq artikllar ma’nosini tashlab ketib bo‘lmaydi. Vaholangki, artikllar sarlavhalar tarkibida kelib, o‘sha matn xarakterini oz bo‘lsa-da ko‘rsatadi. Jumladan, T.

Drayzerning "An Amerikan Tragedy" romani sarlavhasida noaniq artikl "an" bilan asar mazmunidagi kabi fojialar Amerika uchun odatiy hol ekanligiga urg'u bergan holda, "bu asardagi fojia Amerikada ko'p uchrab turadigan fojialardan biri" degan ma'noni bermoqchi bo'lgan muallif fikri o'zbek tilida "Amerika fojiasi" shaklida keltirilgan. Zero, asar nomining barcha grammatik unsurlariga e'tibor beradigan bo'lsak, u "Amerika fojialaridan biri" deya tarjima qilinishiga to'g'ri kelar edi. Bundan tashqari, artiklarni tarjima qilish sintaktik tuzilishga ham ta'sir etadi. Masalan,

- *A man came round the corner*

va

- *The man came round the corner*

jumlalaridan birinchisi

- *Burchakdan erkak paydo bo'ldi*

keyingisi

- *Erkak burchakdan paydo bo'ldi*

tarzida tarjima qilinadi. Bu tarjimalarda aniq va noaniq artikllarning ma'nolari o'zbek tilida inversiya orqali yaqqol ko'rsatib berilganki, o'quvchi o'zbek tilida asliyatdagidek aniqlikni ko'rsatuvchi vositalar ma'nosini to'liq tushuna oladi; ya'ni birinchi gapda erkak notanish va u haqida birinchi marta gap borayapti, ikkinchi gapda esa erkak so'zlovchiga tanish bo'lganligi ayon bo'layapti.

Ingliz tilidagi aniq va noaniq artikllarni ma'nosini beradigan holatlardan yana birini ko'ri shimiz mumkin.

- *"Give me a pen"*

jumlasida so'zlovchi unga istalgan bir turdagi ruchka kerak ekanligini ya'ni qanaqa bo'lishidan qat'iy nazar, unga ruchka berilishini xohlayapti. Buni tarjimada aynan noaniq artikldan anglashilayotgan ma'noni berish uchun o'zbek tilida vositali to'ldiruvchi belgisiz qo'llanishi maqsadga muvofiq:

- *Menga ruchka ber.*

Aynan o'sha gapda to'ldiruvchi vazifasida kelgan otning aniq artikl bilan qo'llanilgan holati:

- *"Give me the pen"*

gapida so'zlovchi aynan unga ham, tinglovchiga ham ma'lum bo'lgan aniq bir ruchka haqida gap borayotgani anglashilib turadi. Buni o'zbek tilda to'g'ri yetkazib berish uchun to'ldiruvchi belgisi qo'llanilishining o'zi ham kifoya:

- *Menga ruchkani ber.*

Yuqoridagi misollardan kelib chiqib aytishimiz munkinki, tarjima tilidagi sintaktik vositalar asliyat tilining o'ziga xos bo'lgan grammatik unsurlarini berish imkonini yaratadi. Lekin bunday holatlar har doim ham to'g'ri va mos bo'lib chiqavermay, artiklarni tarjima jarayonida yuqoridagi kabi usullardan foydalanib, ma'nosini keltirish har doim ham o'zini oqlayvermaydi. Yuqoridagi usullar istisno holatlar uchun to'g'ri kelmasligini hisobga olib yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, biror tilda mavjud bo'lmagan grammatik unsurlarga ega bo'lgan tillar o'rtasida tarjima jarayonida o'sha grammatik unsumni keltirish uchun mos ravishda tilning ichki xususiyatlarini hisobga olib, tilning leksik va sintaktik unsurlaridan umumiy foydalanib, asliyat tilida shu grammatik unsur bildirgan ma'noni qisman yoki to'liq berish mumkin. Yuqoridagi misollardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, ingliz tildagi artikl vazifasini o'zbek tilida ko'rsatish uchun sintaktik vositalar (inversiya, belgilarning qo'llanish yoki tushirib qoldirish darajasi) dan erkin foydalanish maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki yuqorida artikllarning vazifasiga muvofiq tushgan variantdosh unsurlar artikllarning faqat ayrim funksiyalarini bajarib kelganda muvofiq hisoblanadi.

Biz shu va shunga o'xshagan ko'plab misollarni keltirishimiz mumkin. Umuman olganda biz nafaqat tarjimada balki tilshunoslikning har bir nuqtasida, har bir bo'limida grammatikaga duch kelamiz. Yuqorida ko'rib o'tilgan misollar va fikrlardan shunday xulosaga kelish munkinki, tarjima va grammatika bir-biriga bog'liq va ular bir-birini taqozo etadi. Yani tarjimada grammatika katta rol o'ynaydi chunki tarjimon grammatikaga asoslanmasdan turib, boshqa tilda berilayotgan gapning ma'no va mazmunini keltirib chiqara olmaydi. Buning uchun u albatta ikki til doirasidagi grammatik o'ziga xoslikni mukkamal o'zlashtirgan va

tarjimada uchragan har qanday nutq yoki gapni muommosiz o`zligicha tarjima qila olish qobilyatini o`zida mujassamlashtirishi lozim. Ana shundagina biz ko`zlagan natijaga tez va oson erisha olishimiz mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizning rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o'rini egallashga qaratilgan harakatlari doirasida ulardan o'zligimizga xos jihatlarni o'zlashtirish uchun, albatta, bunday davlatlar bilan doimiy iqtisodiy, siyosiy, ilmiy va madaniy aloqalarda bo'lishimiz lozim. Bunday aloqalarga kirishish uchun esa davlatimiz vakillari bu davlatlar ijtimoiy hayoti, urf odati va madaniyati, muomala madaniyatidan xabardor bo'lishi maqsadga muvofiq. Ana shunday mas'uliyat bizning tarjimonlarimiz zimmasiga yuklanganda, albatta, ularning yetuk, malaka va bilimli bo'lishlari taqozo etiladi.

Mazkur magistrlik dissertatsiya ishimizda mana shunday malakali va bilimli tarjimonlarning yangi mukammal avlodini tarbiyalashda oz bo'lsa-da foydali jihatlarga ega bo'lgan yo'l-yo'riq va zaruriy tavsiyalar bilan e'tiborli mavzularda o'z fikrlarimizni berib o'tgan holda, umuman tarjimonlik sohasining deyarli barcha yo'nalishlarida zaruriy deb topilgan tarjimada grammatik muammolarni kelib chiqishi va ularni hal etish yuzasidan qisman fikrlar berib o'tdik. Tarjima xalqlar o'rtasidagi do'stlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, ular orasidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiladigan qudratli quroldir. Shundan kelib chiqqan holda tarjimon mutaxassislari tayorlash masalasi respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Chet tillarini endigina o'rgana boshlagan kishi, albatta, o'sha tilning grammatik strukturalaridan organadi va bu metod hozirda mamlakatimiz bo'ylab har bir o'quv muassasalarida joriy qilingan desak xato bo'lmaydi. Tilni o'rgatishning boshqa metodlari ham ancha samarali, ammo ona tili va chet tili grammatikasini qiyosiy o'rganish hozirgacha o'zini oqlab, chet tilini mukammal darajada o'zlashtirgan kadrlarimizning dastlabki o'rganish fundamentini hosil qilib bermoqda. Shundan kelib chiqib, mazkur magistrlik dissertatsiya ishimizning boshlang'ich qismida takidlab o'tilgan fikrlarga yondashgan holda, aytishimiz mumkinki, tarjimaning tilshunoslik nuqtai nazaridan bizning nazdimizda ham

to'g'ri yo'l sanaladi. Chunki tilshunoslik va mantiq fanlarining o'zaro dialektik aloqasiga nazar solganimizda ham, hukm yoki fikr to'g'ri tushunilishi uchun undagi elementlar to'g'ri tartib va aloqada bog'langan bo'lishi lozim. Bu hukmni tilshunoslik jihatdan izohlaydigan bo'lsak, gap tinglovchiga tushunarli bo'lishi uchun u birinchi navbatda grammatik to'g'ri shakllangan bo'lishi kerak. Tarjimada ham asliyat tilida ifodalangan fikrni tarjima tilida har tomonlama to'g'ri bo'lish faqat uning grammatik shakllanishiga bog'liq emas, lekin asliyat grammatik tarkibini tarjima tilida qayta shakllantirmasdan ko'zlangan maqsadga yetib bo'lmaydi.

Aytmoqchi bo'lganimiz, tarjima jarayoni erkin jarayon deb qaralar ekan, baribir, tarjimon o'ta darajada erkin ijod ham qilmasligi kerak; asliyatdagi har bir tushuncha va birlikni tarjimada berish uchun tarjima tili me'yorlaridan chetga chiqib ham ketmasligi lozim.

Mazkur magistrlik dissertatsiya ishimiz ustida izlanish olib borish jarayonida kelib chiqqan fikrlarimizni xulosa o'rnida keltirib o'tishimiz joiz ekan, tarjimonlik sohasida faoliyatini endi boshlayotgan yosh tarjimonlarimiz amalga oshirilayotgan tarjima jarayonida ikki til (ayniqsa bevosita tarjima jarayonidagi) ichki xususiyatlari, jumladan, ularning grammatik xususiyatlariga alohida e'tibor berishlari, agar jarayonga to'sqinlik qiluvchi biror bir qiyinchilik tug'ilganda yuqorida keltirilgan tarjima sohasida ko'p yillar mobaynida mehnat qilgan olimlarimiz tomonidan keltirilgan metod va yo'nalishdan unumli foydalansalar maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bugungi kunda ta'lim sohasida biz yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar juda ko'p. Shunday ekan biz ulardan unumli foydalanmog'imiz darkor.

Zotan Temur bobomiz "Bizning qudratimizga shubha qilsang, unda biz qurdirgan imoratlarga boq" deb aytganlaridek, biz ham kelajakda o'z qudratimizni biz qoldirajak bilimlar bilan ko'rsatsak ne ajab.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" 137-150, betlar Toshkent, "O'zbekiston" 1997.
2. Karimov I. A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" 34-40,62-63 betlar Toshkent "Ma'naviyat" 2009.
3. Akhmanova O. et. al. Syntax: Theory and Method. Moscow, 1972.
4. Apalova M. A. "Грамматические трудности перевода". - Moskva : Международные отношения, 1977. - 135b.
5. Arbekova T. I. "Лексикология английского языка" - Moskva : Литкон, 2002. - 115b.
6. Aristov N. B. "Основы перевода" Москва, 1959y. 263 bet.
7. Aznaurova S. va b. "Translation theory and practice "T.1989
8. Axmanota O. S., Mikaelyan G. B. "Современные синтаксические теории. Moskva, 1963. 280 b.
9. Barxudarov L. S. (1) "Структура простого предложения современного английского языка". Moskva, 1966; (2) Очерки по морфологии современного английского языка. Moskva, 1975.
10. Barxudarov L. S. "Язык и перевод"- Moskva : Международные отношения, 1975. - 240b.
11. Barxudarov L. S., Shteling D. A. "Грамматика английского языка. М., 1973. 239b.
12. Barxudarov L.S. "Язык и перевод", ИМО,1975.
13. Barxudarov L.S. "Уровни языковой иерархии и перевод" Уров» Тетради переводчика», № 6, Moskva, 1969. 176 bet.
14. Berkov V. P. "О словарных переводах" учебное пособие : Эксмо, 2004. - 201b.
15. Blox M. Ya. "Вопросы изучения грамматического строя языка. М., 1976. 180b.
16. Blumfeld L. "Язык. М., 1968. 341b.

17. Bo'ronov J. "Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy gramatikasi" "O'qituvchi" nashriyoti. Toshkent – 1973. 283 bet.
18. Bondarko A. V. "Грамматические категории и контекст". Л., 1971. 352b.
19. Bo'ronov J. B., Yusupov U. K., Irisqulov M. T. "The grammatical structures of English, Uzbek and Russian" I Tom, Toshkent "O'qituvchi" 1986, 307 bet.
20. Boyko L. B. "Лексико-грамматические трудности перевода с английского языка на русский" - Калининград : РГУ, 2005. - 150b.
21. Bryant M. A. "Functional English Grammar". N.Y., 1945. 354b.
22. Burlakova V. V. "Основы структуры словосочетания в современном английском языке. Л., 1975. 240b.
23. Curme G. O. "A Grammar of the English Language". Boston — N.Y., 1935.
24. Deyeyeva I. M. Lexico-grammatical difficulties of English. — L.: Lviv University Press, 1976. — 278p
25. Fedorov A. V. "Основы общей теории перевода" М. «Высшая школа», 1968, 400 б.
26. Feodorov A. V. "Введение в теорию перевода", Moskva, 1953y. 327 bet.
27. Fries Ch. C. "The Structure of English". N.Y., 1952.
28. Ilyish B. A. The Structure of Modern English. M.-L., 1971.
29. Irtenyeva N. F., Barsova O. M., Blokh M. Y., Shapkin A. P. A "Theoretical English Grammar". Moscow, 1969.
30. Ivanova I. Ya., Burlakova V. V., Pochepsov G. G. "Теоретическая грамматика современного английского языка". М., 1981. 361b.
31. Khaimovich B. S., Rogovskaya B. I. "A Course in English Grammar". Moscow, 1967.
32. Komissarov V. N., Retsker Ya. I., Tarxov V. I. "Пособие по переводу с английского языка на русский". Moskva, 1960y. 284 bet.
33. Komissarov V. N. "Слово о переводе". Moskva, 1973, 214 bet.
34. Komissarov V. N. К вопросу о сопоставительном изучении переводов. — Тетради переводчика. ИМО, 1970, №7.s.46.

35. Koshevaya I. G. "Грамматический строй современного английского языка". М., 1978. 299b.
36. Levitskaya T. R., Fiterman A. M. "Пособие по переводу с английского языка на русский", Москва, 1973 "Высшая школа", 134 bet.
37. Levitskaya T., Fiterman A. Почему нужны грамматические трансформации при переводе?//Тетради переводчика. – М., 1971. – Вып. 8.
38. Miller J. "Semantics and Syntax: Parallels and Connections". - Cambridge: Cambridge University Press, 1985. 351 b.
39. Musayev Q. "Tarjima nazariyasi asoslari". Toshkent, 2005.
40. Musayev Q., "Badiiy tarjima va nutq madaniyati". Toshkent, 1976, 159 b.
41. Nida E. Morphology. Ann Arbor, 1965.
42. Plotkin V. Ya. "Грамматические системы современного английского языка". Кишинев, 1975. 308b.
43. Retsker Ya. I. "Теория и методика учебного перевода" Moskva, 1950. 208 b.
44. Retsker Ya. I. "Теория и практика перевода с английского языка на русский", Moskva, 1956y, 274 bet.
45. Salomov G'. "Tarjima tashvishlari". Toshkent, G'.G'ulom nashriyoti, 1983y, 192 b.
46. Salomov G', Komilov N. "Tarjimon mahorati". Toshkent, «Fan».1979, 196 b.
47. Shirayev A.F. Перевод как объект комплексного научного изучения. "Лингвистические проблема перевода". Москва.1981. 194b.
48. Shendels E. I. "О грамматической полисемии." - ВЯ, 1962, №3, - 258с.
49. Shvedova N. Yu. Грамматика.//Языкознание: Большой энцикл.сл. / Под ред. В.Н.Ярцева. – М., 1998. - 315с.
50. Smirnitkiy A. I. (1) Синтаксис английского языка. М., 1957; (2) Морфология английского языка. М., 1959. 384b.
51. Turaboyeva R. A. "Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimalarda pragmatikaning lingvistik ahamiyati".-«O'zbek tili va adabiyoti», Toshkent, 1979, №5, 64-65 b

52. Vinogradov V. S. "Введение в переводоведение" Moskva : ИОСО РАО, 2001.- 224б.
53. Zalevskaya A. A. "Об истоках, проблемах перспективах современного подхода к проблемам языка и значения" // Слово и текст в психолингвистическом аспекте. - Тверь, 2000. - 3 -11.

FOYDALANILGAN ELEKTRON MANBAALAR

10

1. www.wikipedia.com

2. www.ziyonet.uz

3. www.pedagog.uz

4. www.scop.ac.uk

5. www.offa.org.uk

6. www.univer.scotland.ac.uk

7. www.google.ru

8. www.yandex.ru